O'quvchilarda to'g'ri yozuv malakasini shakllantirish grammatik nazariyani va imlo qoidasini o'zlashtirishga asoslanadi. Imlo qoidalari bir so'zgina emas, balki umumiylig mavjud bo'lgan butun so'zlar guruhining yozilishini tartibga soladi. Bu xususiyati bilan u qoida xat yozuvchini har bir so'zni yodda saqlash, xotirlashdan qutqaradi va qoidaga amal qilib, belgilangan me'yorga muvofiq butun so'zlar guruhini yozish imkonini yaratadi. Imlo qoidalari grammatik birlashgan so'zlarning yozilishini bir xillashtiradi. Bu yozma ravishdagi aloqani yengillashtiradi va imlo qoidalarining ijtimoiy ahamiyatini ta'kidlaydi.

Imlo qoidalari grammatik, fonetik, so'z yasalishiga oid materiallarni ma'lum darajada bilmasdan turib o'zlashtirish mumkin emas. Grammatik nazariya imlo qoidalari uchun poydevor hisoblanadi. Shuning uchun boshlang'ich sinflarda imlo qoidasi shu qoidaga asos bo'ladigan grammatik nazariyaga bog'liq holda o'r ganiladi. Masalan, shakl yasovchi qo'shimchalarning yozilishi haqidagi qoidalari "Ot", "Sifat", "Son", "Kishilik olmoshlari", "Fe'l" mavzulari ichiga kiritilgan. Materialning bunday joylashtirilishi grammatika bilan orfografiyani bir-biriga bog'liq holda o'r ganishni ta'minlaydi.

Imloga oid mashqlar imloviy ziyraklik ko'nikmasini shakllantirishga, tegishli o'rinda qoidani tatbiq qilishga, mashqlarning qismlari o'rtasidagi bog'lanishni belgilash, ularni umumiyl va yagona faoliyat tizimiga kiritishga, o'quvchilar uchun qoidaning mohiyatini aniqlash va uni shakllantirishga qaratiladi. Metodikada imloga oid mashqlarga:

- 1) grammatik-orfografik tahlil;
- 2) ko'chirib yozuv;
- 3) diktantlar;
- 4) leksik-grammatik tahlil;
- 5) bayonlar kiradi.

Grammatik-orfografik va leksik-orfografik tahlilda orfografiyaning grammatika va leksika bilan bog'lanishi, ko'chirib yozish va diktantda o'quvchilar faoliyatini belgilaydigan omillar, xususan, ko'chirib yozishda ko'rish va qo'l harakati uquvi, diktantda eshitish uquvi hisobga olinadi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. K.Qosimova va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi.
2. Ta'limga oid saytlar.



EFFECTIVE WAYS OF LEARNING READING SKILLS FOR BEGINNERS

Abdullayeva Malohat Rustamovna
English teacher of vocational school №2 Of
Khorazm region, Tuproqqa'l'a district

Annotation: Learning how to read is one of the most important things a child. That's because everything from vocabulary growth to performance across all major subjects at school is linked to reading ability.

Key words: learn, read, method, process, activity.

They may enjoy singing the alphabet song and reciting nursery rhymes, which helps them develop an awareness of the different sounds that make-up English words. As fine motor skills advance, so does the ability to write, draw and copy shapes, which eventually can be combined to form letters.

There are different methods which are useful during lessons:

The Phonics Method

The smallest word-part that carries meaning is a phoneme. While we typically think of letters as the building blocks of language, phonemes are the basic units of spoken language. In an alphabetic language like English, sounds are translated into letters and letter combinations in order to represent words on the page. Reading thus relies on an individual's ability to decode words into a series of sounds. Encoding is the opposite process and is how we spell.

The Phonics Method is concerned with helping a child learn how to break words down into sounds, translate sounds into letters and combine letters to form new words. Phonemes and their corresponding letters may be taught based on their frequency in English words. Overall there are 40 English phonemes to master and different programs take different approaches to teaching them. Some materials introduce word families with rhyming words grouped together. It's also possible to teach similarly shaped letters or similar sounding letters together.

The Whole-word Approach

This method teaches reading at the word level. Because it skips the decoding process, students are not sounding out words but rather learning to say the word by recognizing its written form. Context is important and providing images can help. Familiar words may initially be presented on their own, then in short sentences and eventually in longer sentences. As their vocabulary grows, children begin to extract rules and patterns that they can use to read new words.

Reading via this method is an automatic process and is sometimes called sight-reading. After many exposures to a word children will sight-read the majority of the vocabulary they encounter, only sounding out unfamiliar terms.

Sight-reading is faster and facilitates reading comprehension because it frees up cognitive attention for processing new words. That's why it is often recommended that children learn to read high frequency English vocabulary in this way. The Dolch word list is a set of terms that make-up 50-75% of the vocabulary in English children's books.

The Language Experience Method

Learning to read nonsense words in a black-and-white activity book is not always the most effective approach. The Language Experience Method of teaching reading is grounded in personalized learning where the words taught are different for every child. The idea is that learning words that the child is already familiar with will be easier.

Teachers and parents can then create unique stories that use a child's preferred words in different configurations. Children can draw pictures that go with them and put them together in a folder to create a special reading book. You can look for these words in regular children's fiction and use them to guess at the meaning of unknown words met in a context – an important comprehension strategy that will serve kids in later grades.

Besides, there are different activities which are really critical during lessons. But before implementing



these every teacher should be attentive as observing the pupils' background knowledge, their age, grade and language potential.

REFERENCES

1. Alderson, J. C. (1984). Reading in a foreign language: a reading problem or a language problem. *Reading in a foreign language*. London: Longmen
2. Aftab, A., and Salahiddin, A (2015) . Authentic texts and Pakistani learners' ESL reading comprehension skills: A mixed-method study. *Language Education in Asia*.
3. Anthony,H.M. Pearson, P. D. and Raphael, T, D.(1993) Reading comprehension a selected review.In L. M.Clearlyand M. D. Linn. *Linguistics for teachers*.



**ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA „TEZKOR MUHOKAMA” VA
„UCHINCHISI ORTIQCHA” O’YINIDAN FOYDALANISH**

Ahmadaliyeva Muhtaram Qambaraliyevna

Namangan viloyati Pop tumani
2 - son maktab ona tili va adabiyot o'qituvchisi

Annotatsiya: Bugungi kunda o'quvchilarga dars o'tganda innovatsion metodlar va didaktik o'yinlarning ahamiyati katta. Bular natijasida o'quvchi fanni yaxshi o'zlashtiradi va darsga bo'lган qiziqishi ortadi. Mazkur maqolada ham ona tili va adabiyot darslarida tezkor muhokama” va „uchinchisi ortiqcha” o'yinidan foydalanish orqali darslarni tashkil qilish yo'llari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ona tili, o'zin, metod, tezkor muhokama, uchinchisi ortiqcha, o'quvchi, harf, so'z.

Ona tili va adabiyot darslarida o'tilgan mavzuni takrorlash, yangi mavzuni mustahkamlashda turli xil metodlardan foydalanamiz. Biz qo'llab kelayotgan metodlar o'quvchilarning ilm olishlari uchun zamin hozirlaydi, uzoq vaqt xotirasida saqlanishini ta'minlaydi. Xotirani charxlovchi, mustahkamlovchi metodlar qatorida „Tezkor mushohada”, „Uchinchisi ortiqcha” o'yinlarini kiritish mumkin. Ushbu metodlardan foydalanishda shakldosh so'zlardan qo'llash mumkin. Shakldosh so'zlar-shakli bir xil ma'nosi har xil so'zlar hisoblanadi. Namuna sifatida quyidagi „Tezkor mushohada” usuli asosida tez va to'g'ri yechishlari kerak bo'ladi. Ya'ni nuqtalar o'rniiga kerakli harflarni qo'yib shakldosh so'zlar hosil qilish topshiriladi.

1. T...1, 2.Y...z. 3. S...ch. 4. CH...ng.5. T...r. 6.T...sh. 7. T...t. 8.T...r. 9.Q...y. 10.T...y.

O'quvchilar ishi tekshirilib, so'zlar mazmuniga izoh berish talab qilinadi. Javoblar quyidagicha bo'lishi kerak.

1-3-qator- ta'na a'zolari [til, yuz, soch]

4-5-qator- cholg'u asboblari [chang, tor]

6-8-qator- harakat fe'llari [tush, tut, tur]

9-10-qator-hayvon nomi [qo'y, toy]

„Uchinchisi ortiqcha” o'yinida esa o'quvchilarga shakldosh so'zlar yozilgan quyidagi jadval ko'rsatiladi. Ular shakldosh so'zlar berilmagan qatorni topishlari kerak bo'ladi.

och	oyoq	kuy
kul	qattiq	o't

Bunda 2-katakdagi oyoq, qattiq so'zları shakldosh so'zlar emasligi qayd qilinadi.

Bundan tashqari quyidagi jadvalda ham o'quvchilarning bilim saviyasini oshirish, mustahkam o'zlashtirishlari va o'rganishlari uchun zamin yaratadi.

Jadvalni to'ldiring.

T/r	Shakldosh so'zlar	So'zlarning ma'nosi	So'z turkumida qo'llanilishi
1	Bor	mavjud	... [ot]
2	bor	bormoq	... [fe'l]
3	tut	daraxt	... [ot]
4	tut	tutmoq	... [fe'l]
5	ot	hayvon	... [ot]
6	ot	otmoq	... [fe'l]

O'quvchilar ixtiyoriy raqam tanlashadi, shu raqam ostidagi so'zning qaysi so'z turkumida ekanligini jadvalga yozishadi.

Shuningdek, adabiyotda shakldosh

so'zlar ishtirokiga asoslangan „Tuyuq” deb atalmish she'riy janr ham mavjudligi aytilib, o'quvchilar diqqat-e'tiborini so'z mulkinining sulton A.Navoiyning quyidagi tuyuqlarini tinglashga qaratiladi, shakldosh so'zlarni eslab qolish topshiriladi.

Tig'i ishqing yorasidur butmagon,

Dardini har kimga ochib butmagon.

Hajr sahrosidur ohim o'tidin,



Anda gul yoxud giyoh butmagon.

„Butmagan” so’zi birinchi misrada „tuzalmagan”, ikkinchi misrada „tugatmagan” to’rtinchi misrada esa „o’smagan”, „ko’karmagan” ma’nosida kelgan.

Necha dedim ul sanamga bormag’in!

Qilmadi ul, tark oxir bormog’in

Munchakim xudroylik kurkuzdi ul,

Aql hayrat qildi, tishlab barmog’in.

“Bormog’in so’zi birinchi misrada „bormagin”, ikkinchi misrada „borish odatini”, to’rtinchi misrada borish ma’nosida kelgan.

Darhaqiqat ona tilida shakldosh so’zlar juda ko’p ishlatilgani uchun ular maxsus she’riy janruyuqqa asos bo’lib, xizmat qiladi. Masalan:

Bunim yo’q, **unim** yo’q,

Uyimda **unim** yo’q.

Ishimda **unim** yo’q,

Aytishga **unim** yo’q.

Badiiy adabiyotda shakldoshlarni qo’llash orqali **tajnis** [jinos] va **iyhom** san’atlari yuzaga chiqishi ta’kidlab o’tiladi. Chunki **tajnis** she’rda shakldosh so’zlarni qo’llash san’atidir.

Xulosa qilib aytganimizda shakldosh so’zlarni o’rganish, ma’no jihatdan tahlil qilish, o’quvchilarning nutqini o’stirishda va lug’at boyligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada o’z fikri va maqsadini og’zaki va yozma ravishda ifodalay oladi. So’z ma’nolari va uning nozik jihatlarini yaxshi his qiladi.

Umuman, ona tili dasturidan o’rin olgan har bir mavzuni o’quvchilar qalbiga chuqur singdira olsak, ularning lug’at boyligini oshirish uchun zamin hozirlagan bo’lamiz. Shuning uchun o’rganilayotgan mavzularni amaliy va nazariy jihatdan asoslab berishda biz o’qituvchilardan mas’uliyat talab qilinadi. Bu esa o’quvchilarning o’zbek adabiy til normasida yozuv va so’zlashuv ko’nikmalarini hosil qilish uchun xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nargiza Erkaboyevna. „O’zdek tilidan ma’ruzalar to’plami, topshiriq va savollar.
2. O’tkir Rahmatov Abadiyat gulshani: maqolalar, she’rlar, loyiha.
3. Maktablarning ona tili va adabiyot darsliklari.



ТУРИСТИК РЕКЛАМАНИНГ ИФОДАВИЙ ВОСИТАЛАРИ ТАҲЛИЛИГА ДОИР

Исмаилова Лайло Хондамировна
ТДИУ Хорижий тиллар кафедраси
инглиз тили ўқитувчиси.
Email: laylohonimismailova@gmail.com

Abstract: This article classifies the stylistic features of national tourism advertising, as well as its various functions. This article analyzes the ways in which tourist advertisements are delivered to the public and explains them with a few examples.

Key words: advertising, branding, pragmatics, explicit meaning, implicit meaning, tourism, stylistics, destination

Минтақа - умумий табиий географик, тарихий, миллий-маданий бирлик ва диний-этник яқинлик, ижтимоий-иктисодий ривожланиш даражаси, турли босқичда такомиллашмаган бошқарув тизими ҳамда ижтимоий иқтисодий ва экологик муаммоларни ечишдаги маъмурий-худудий органлар фаолиятининг муштарақлигини тақозо қилувчи яхлит худудий бирлик” дея таъкидлаган. Хусусан, А.А Қаюмов “Минтақа (регион)-бу маълум худуд бўлиб, у бошқа худудлардан қатор белгилар бўйича фарқ қиласи ва ўзига хос бир бутунлик, таркибий элементлари ўртасида ўзаро алоқадорлик мавжудлиги билан ифодаланади деб таъриф берган А.Солиевнинг таъкидлашича “Минтақа” Минтақавий иқтисодиётда кўпроқ “худуд” маъносини англатади¹. Мамлакат брендинг туристик соҳанинг ажралмас қисми бўлган ҳолда, давлатнинг дунё сайёхлари наздида қандай тассавур уйғотишига замин бўлади. Брендинг борасида тадқиқотчи К. Динни “Территория брендинги” асарида атрофлича маълумот берган ҳолда туризм экспорт маҳсулотлари, сиёсат, бизнес, инвестиция, маданият ва инсонлар мамлакат брендингининг ташкилий қисми эканини таъкидлайди². Мамлакатни нафақат ўз аҳолиси балки сайёхлар томонидан ҳам ижобий тасвирга эга бўлиши муҳим жараёндир.

Худудий имидж ҳозирги кунда иқтисодиётнинг реал ва ўта муҳим ресурсига айланиб бормоқда. Бу иқтисодий ва сиёсий субъектларнинг рақобат устунликларини таъминлаш учун ахборотнинг аҳамияти тобора ортиб бораётганидан келиб чиқади. Ҳудуд қиёфаси, ички ва ташқи ижтимоий-сиёсий ва ишбилармон доиралардаги обрў – эътибори, миллий ва минтақавий ташқи иқтисодий ва сиёсий лойиҳаларни рағбатлантириша асосий омил бўлгани ҳолда, ҳамкорликни йўлга қўйишида энг муҳим рақобат ресурси бўлмоқда. “Яхши ном” мамлакатнинг ижтимоий-иктисодий ривожланишини жадаллаштириш, аҳоли турмуш даражаси ва сифатини яхшилашнинг шарти бўлиб, худуднинг жадал ривожланиши учун муҳим бўлган қатор масалаларни ҳал этишга кўмаклашади.

Бу, биринчи навбатда, инвестицияларни, жумладан, хорижий ишбилармонларни жалб қилиш, миллий худудий ишлаб чиқарувчилар маҳсулотлари учун савдо бозорларини кенгайтириш, меҳнат ресурсларини жалб қилиш, туризмни ривожлантириши демакдир. Агар шаҳар маркетинги шаҳар манфаатларини мунтазам равишда илгари суриш бўлса, у ҳолда шаҳарни брендлаш маркетингнинг энг замонавий ва бирлаштирилган шакли хисобланади. Бренд бу иероглифнинг бир туридир. Унинг аввал нимани англатгани муҳим эмас. Балки унинг номланиши муҳимдир. Бу эса, ностальгик брендлар мўл эканлигининг сабабидир. ³Шаҳар брендининг асл моҳияти ва қиймати шаҳар манфаатларини илгари суришда қандай ёрдам бериши ва мамлакатга келтирувчи фойдаси орқали ўлчанади. Туризм соҳасида брендинг маҳсулоти истеъмолчилар тасаввурида ҳар бир инсон учун кўплаб ноёб уюшмалар (тасвирлар) яратади, аммо уларнинг аксарияти жуда сайёхлик маҳсулотининг воқелигига мос эмас. Замонавий туризм бутун дунё бўйлаб кўпроқ тарқалгани сари, туристик (манзил) мамлакат маркетинги учун янги имкониятларузага келмоқда.

¹ Солиев А.С. ва бошқалар. Минтақавий иқтисодиёт. Ўқув кўлланма. Тошкент: Узму 2003. –Б.8.

² Динни К. Брендинг территориий. Лучшие ми-ровые практики. М. : ООО «Манн, Иванов и Фербер», 2013. –55.

³ Новиков М:Ни Рекламный текст в СМИ: способы обозначения целевой аудитории/Автореф: дис. ... канд. филол. наук. Ростов;н/Д.;;2007. – Б.22.



Халқаро туризм, кўплаб сайёхлик муҳим миллий экспорт ҳисобланувчи турли мамлакатлар ўртасида яралган шиддатли рақобат аренасидир. Бу бозорга кирган хар қандай давлат, бошқа давлатлар билан, шунингдек, бутун жаҳон мintaқалари билан муносабатларининг мураккаб рақобат тизимиға киради. Маркетинг сиёсати мамлакат туристик ҳудуд қиёфасини шакллантириш ва ижобий ривожланишишга қаратилган. Глобал дунёда мувафақиятли ривожланиш учун мамлакатлар “онгли” равишда ривожланишни билмоқлари ҳамда ўзгришларга тайёр бўлишлари талаб этилади

Адабиётлар

1. Солиев А.С. ва бошқалар. Минтақавий иқтисодиёт. Ўқув қўлланма. Тошкент: Узму 2003. –Б.8.
2. Динни К. Брендинг территорий. Лучшие ми-ровые практики. М. : ООО «Манн, Иванов и Фербер», 2013. –55
3. Новиков М:Нি Рекламный текст в СМИ: способы обозначения целевой аудитории/Автореф: дис. ... канд. филол. наук. Ростов;н/Д:;2007. – Б.22.



МАМЛАКАТ ТУРИСТИК ҲУДУД ҚИЁФАСИНИ ШАКЛАНТИРИШ ВА ИЖОБИЙ РИВОЖЛАНТИРИШДА РЕКЛАМАНИНГ ЎРНИГА ДОИР

Исмаилова Лайло Хондамировна
ТДИУ Хорижий тиллар кафедраси
инглиз тили ўқитувчisi.
Email: laylohonimismailova@gmail.com

Annotation: This article discusses the role of advertising in the development of tourism and economy, as well as the linguistic and cultural characteristics of the advertising texts

Аннотация: Ушбу мақолада миллий туризм ва иқтисодиётнинг ривожлантирилишда рекламанинг ўрни, ҳамда реклама матнининг лингвокультурологик хусусиятлари хусусида сўз юритилади.

Keywords: advertising, tourism, national tourism, management, image, linguoculturology


Калит сўзлар: реклама матни, миллий туризм, менежмент, сайёх, имидж, лингвокультурология.

Маркетинг сиёсати мамлакат туристик ҳудуд қиёфасини шакллантириш ва ижобий ривожлантиришга қаратилган. Глобал дунёда мувафақиятли ривожланиш учун мамлакатлар «онгли» равишда ривожланишни билмоқлари ҳамда ўзгришларга тайёр бўлишлари талаб этилади. Замонавий шаҳарлар дунё сахнасига янги роллар билан чиқувчи актёrlар кабидирлар. Театрда бўлгани каби ушбу сахнада ҳам турли даража ва маҳоратга ега актёrlар, истеъдодлилар, мухлислар, ва театрдан келувчи фойда ҳам мавжуддир. Ҳатто режисёrlар ҳам бор. Ҳаётий театрдаги каби бу жабҳада ҳам, истеъод соҳиблари оддий ўйинчилардан кўра камроқдир. Мамлакатлар ижро этувчи «роллар» бу худудий брендлардир. Агар айнан шу «актёр» шаҳарлар талабга мувофиқ ресурсларга эга бўлмай туриб ҳам ривожланиб, «актёр»ликка мойил бўлмаган шаҳарлардан моддий жиҳатдан бойиб кетиши кузатилмаганда, ушбу театрга мос метафоралар қизиқарли ўхшатиш холида ҳам қолиши мумкин эди. Визгалов ўз асарида брендингни ушбу ўхшатиш орқали жуда яхши тушунтириб беради. Чиндан ҳам шаҳарлар брендини яратишда маълум вазифаларни бажаришади. Бунда уларга туристик слоганлар ва рекламалар ёрдам беради. Бизнингча эълонлар бу жараёнда мухим ўрин эгаллаб шаҳар номидан сўзловчи элементлар бўлиб ҳам ҳизмат қиласидар. Дарҳақиқат жадал реклама қилинган эътибор тортувчи белгиларни намоён қилган худудлар сайёхлар дикқатини доимо тортиб келган. Баъзи ҳолларда бу каби худудлар ҳеч қандай ёдгорлик, ёки қизиқарли гўшаларга ҳам эга бўлмайдилар. Аммо бирор ташкил этилган кўргазмалар рекламаси орқали шаҳар кўп сонли сайёхлар мўлжалига айланиши аниқ. С. Ландри ва унинг ҳамкаслари ҳар бир шаҳар - аҳолиси ўзларининг ижодий капиталларини баҳолаши ривожлантириши, қуриши ва бошқа шаҳарларга рақобатлашишда уни восита сифатида ишлатишга қодир бўлган шаҳар концепциясини ишлаб чиқдилар [Ландри, 2005]. Концепцияга кўра С. Ландри ўзининг чексиз некбинлигини намоён етади. Унинг сўзларига кўра, ҳар қандай шаҳар, ҳатто моддий жиҳатдан энг умидсиз ривожланиш ресурсларига эга бўлмагани ҳам ўзини ўзgartириши мумкин. Бунда шаҳарнинг фидокор ижодкор аҳоли синфининг ёрдами керак бўлади. Ресурслар (инвестициялар) ижодкор аҳоли синфи иши натижасида кейинроқ келаверади. Ушбу жараённинг асосий харакатлантирувчи кучи - бу ижодий соҳалар ва авваламбор шаҳарнинг маданий ҳаётидан иборат бўлади. Бизга маълумки маданият орқали ўзларини ўзgartиришга муваффақ бўлган шаҳарлар, бир қатор муваффакиятли маркетинг мисолларида энг катта гурухни ташкил қиласиди. Шаҳар маркетинги ва брендини бошқариш учун маданият ва санъатга таяниш - бу энг улкан ютуқдир. Потенциал турист онгидаги аниқ мақсад тасвири унинг айнан ўша маълум





дестинацияни танлашига сабаб бўлади. Ушбу пойгода дестинация маркетологлари реклама материаллари ва кампаниялар яратиш мақсадида инновацион энг ақлга сифмайдиган усулларга ҳам мурожат қиласидар. Куйида дунёning турли қисмларида омадли ҳудудий брендинг кампанияларига назар соламиз: Буюк Британия реклама кампанияси - бу энг юқори даражада ҳамкорликнинг ажойиб намунаси. Буюк Британия кампанияси миллий юбилейлардан (масалан, Шекспир вафотининг 400 йиллиги) кабилардан унумли фойдаланган ҳолда реклама компанияларини ишлаб чиқаради. Ушбу мамлакат тажрибаси орқали Ўзингизнинг маданиятингизга чуқур кириб, уни дунё билан баҳам 1. кўришни ўрганиш айни муддаодир. Реклама эълонидаги “Британияни Паддингтоннинг кўзлари билан томоша қил” ибораси эса таҳсинга лойиқ.



инновациялар, устунлик, ижтимоий тараққиёт ҳамда барқарорлик сўзлари орқали ҳудуд тасвири унумли яратилган.



Кейинги расмда 2020-йилда тақдим этилган Коста-Рикадаги жой бренд стратегияси намоён бўлиб, бу уларнинг ҳаракатларининг асоси сифатида муассасаро ҳамкорлик билан барча ҳаракатларини шакллантирадиган ва бошқарадиган яхлит ёндашувдан иборатдир. Уларнинг сайёхлик брендидан 2миллий брендга бўлган саёҳатини кузатиш илҳом бағишлиди. Ушбу мамлакатнинг брендинг кампанияси 2050 йилгача декарбонизациянинг улкан режасини олдига қўйганлиги билан дикқатга сазовордир. Реклама варақасида

3Озарбайжоннинг 2019-йилдаги ребрендинг сиёсати, сайёҳларни ушбу мамлакатга янгитдан қарашга ва стереотиплар ортидаги мамлакатнинг гўзаллиги ва ҳайратини кашф этишга чорлади. Реклама дизайнининг ўзига хослиги мамлакатнинг зиддиятларига жуда мос келади ва бу мослашувчанлик дизайнни ҳар қандай вазиятга мослаштирилишини англатади. “Қайта назар сол!” ибораси ҳамда расмдаги 2 ҳил тароват бутун дунё бўйлаб потенциал саёҳатчиларнинг тасаввурларни ўзгартириди. Ҳудуд тасвири-кишиларнинг табиий-иклимий, тарихий, этнографик, ижтимоий-иктисодий, сиёсий, ахлоқий ва психологик ва бошқалар ҳақида юзага келадиган эътиқод ва хис-туйғулари мажмуи. Ушбу ҳудуднинг хусусиятлари ва унинг субъектив кўриниши бевосита ёки билвосита намоён бўлади.



**REALIYA VA ULARNI TARJIMADA QAYTA YARATISHNING O’ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI (O’ZBEK VA KOREYS MATERIALLARI ASOSIDA)**

Kadirov Timur Raxmatilloyevich,

Samarqand Viloyat IIB ofitseri

(Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil izlanuvchisi)

Телефон:+998933436152

rameo_113@mail.ru

ANNOTATSIYA: Hozirgi kunda jahon adabiyoti va boshqa jamiyatimizning barcha sohalarini xorijiy tildan tarjima qilganda o’zaro nomutanosibliklar va tarjima kontekstida mos kelmaydigan realiyalarga har bir tarjimonlar, tarjima jarayonida duch keladi. Xususan, ushbu maqola tarjimadagi realiyalar klasifikatsiyasi va milliy o’ziga xosliklarni tarjima qilishda, ayniqsa koreys va o’zbek tillari matereallari asosida batafsil yoritib beradi.

KALIT SO’ZLAR: Realiya, endemik tushuncha, etnografik realiya,

Realiya va milliy o’ziga xoslikni ifodalovchi so’zlarni badiiy tarjimada qayta yaratish muammolarini o’rganishdan oldin, tarjimashunoslik nuqtai nazaridan realiyalarning umumiylashtirilishi, milliy va mahalliy o’ziga xosliklarni ifodalovchi so’zlarga qanday leksik birliklarni kiritish mumkinligini jiddiy o’rganishga to’g’ri keladi. Bu masala mening nazarmizda bolgar olimlari S.Vlaxov va S.Florinlarning yuqorida tilga olingen “Непереведенные переводы” va I.K.Mirzayevning “Слово реальности и вопросы художественного перевода” kitobida atroflicha va chuqur o’rganilgan.[1] S.Vlaxov va S.Florinlar o’z dissertatsiyalarida realiyalarga predmetik tushunchasini ifodalash nuqtai-nazaridan mahalliy sharoitga, tarixiy davrlarga mansubligi jihatdan yondashib klasifikatsiya qilishni taklif qiladi.[2] Ular predmetik belgisiga muvofiq tushunchalarni ifodalovchi realiyalarni katta guruhlarga bo’lishadi:

1. Geografik va etnografik tushunchalarni ifodalovchi tushunchalar.

a) geografik tushunchalarni ifodalovchi realiyalarga fizik geografiyaning ob’yektlarini ifodalovchining tushunchalarini kiritadi.

b) Inson faoliyati bilan bog’liq bo’lgan geografiyaning ob’yektlarini ifodalovchi tushunchalar

c) Endemik tushunchalarni ifodalovchi so’zlar

Olimlarning ta’kidlashicha geografik tushunchalarni ifodalovchi botanika, geografiya, zoogeografiya, poleogeografiyaga oid belgilash mumkin emas. Bunday tushunchalarni tarjimada berishda tarjimonidan lug’atlarga, ensiklopediyalarga

qarash, tushuncha ifodalovchi bu so’zni tilda keng yoki tor doirada tarqalganlik darajasi, so’z ifodalovchi koloritni, kontekstni chuqur o’rganish talab qilinadi.

a) Etnografik realiyalar ham o’z navbatida quydagi kichik guruhlarga bo’linadi. [3]

1. Maishiy turmush tushunchalarini ifodalovchi realiyalar:

b) oziq-ovqat, ichimlik, ommaviy ovqatlanish korxonalari nomlarini ifodalovchi tushunchalar: shi, cheburek, pirog, spaghetti, borsh, qimiz, bo’za, sidr, choyxona, taverna, bistro, hammom, sauna, sake, 술[sul](koreys arog’i), 김치[kimchi(salat), 비빔밥[pibimpap] (milliy taom) va boshqalar. [4]

c) kiyimlar, poyafzal turlari, bosh kiyimlarinomlari ifodalovchi tushunchalar: 한복 [hanbok]-koreys milliy kiyimi. [4]

d) ayollarni[한복]hanbogi, [조고리]chogori va [치마]chimadan iborat bo’ladi, erkaklarni [한복] hanbogi [조고리]chogori va [바지]chimadan iborat bo’ladi, [조고리] chogori – hangbokning ustki qismi(erkaklarniki belni pastigacha uzunlikda bo’lsa, ayollarniki ko’krakning pastida turadigan uzunlikda bo’ladi. [치마]chima-koreys milliy yubkasi, 고무신[komushin]-korea ayollar kiyadigan milliy oq kiyim, 면사포[myonsapo]-koreys kelinchaginiq ofqatasi ,살것[satkot]-bambukdan yasalganshlyapa va boshqalar.[4]

e) Turar joy, uy jihozlari(mebel)idishlar nomini ifoadalovchi tushunchlar: 삽짝 [sapchak]-to’qilgan eshik tabaqasi, 목첩[mokchop]-bosh tagiga qo’yiladigan yostiq, 멍석[mongsok]- poxol quritilgan .[4]



f) 바가지 [pagaji] qovoqdan va yog'ochdan yasalgan cho'mich, 수저[sujo]-koreys milliy qoshig'i va cho'pchalari, 온돌[ondol]-issiq pol, 아랫목[aretmok]-xonadagi polning eng issiq joyi, 틃마루[tvetmaru]-koreys xonadonlaridagi usti yopiq, yog'och poli ayvonch, 배게[pege]-o'zbek xalqiga xos bo'lgan yostiq va boshqalar;

g) Transport vositalari va ularning haydovchilari nomini ifodalovchi tushunchalar: 가마[kama]-Koreeadagi qadimda zodagonlar foydalanadigan transport vositasi(oldindan ikki kishi, orqadan ikki kishi ko'tarib yuradigan arava.[4]

2. Mehnat faoloyatini ifodalovchi tushunchalar:

h) Mehnatkashlar:peredovik, udarnik, brigadir, tabelshik, fermer, konsert, dvornik, 반장[panjang], 과장[kvajang], (C.I.Oжего.1986:35) 사장[xo'jayin], 부장[pujang], 회장[hejang]

i) Mehnat qurollari nomini ifodalovchi tushunchlar:지 계[chige]

j) (koreys xalqining milliy yelkaga yukni olib yurish mehnat quroli), 낫[nat](koreys xalqi foydalanadigan maxsus o'r oak va boshqalar. [4]

k) mehnat tashkilotlarini ifodalovchi tushunchalar: kolxoz, rancho, latifundiya, glavka, agrokopleks, gildiya, korxona.

3. San'at va madaniyatga oid tushunchalar:

a) musiqa va raqs nomlari-kazachok, gopak, lezginka, trentella, tanovar, sambo, polka, 사물노리[samulnori]-milliy kuy, 부채춤[puchechum]-(yelpig'ichli raqs), 아리랑[arirang]-milliy qo'shig'i va b.

b) Musiqa asboblarini ifodalovchi asboblar: balalayla, gitara, nay, g'ijjak, dutor, 귀[kvi], 북[puk]-baraban, 장구[changu], 징[ching], 괭과리 [kvengkvari] va boshqalar;

c) Folklorqa oid tushunchlar: saga, 시[shi]-she'r, 석담[sokdam]-maqol, 춤[chum]-raqs, qasida, g'azal, latifa, yalla

d) Teatrga oid tushunchalar: 연극[yongik]-teatr, 무대[mude]-sahna, 막[mak]-sahna pardasi, 배우[peu]-rol, 극의[kiki]-sahnalashtiruvchi rejisyor, 극본[kikbon]-senariy va boshqalar;

e) San'atga oid narsalar nomini ifodalovchi tushunchalar: ikebana, sino, chinte, halishe, 악기 [akki]-cholg'u asbobi, 가수[kasu]-qo'shiqchi, 자곡가 [chagokka]-sozanda, 가요 [kayo]-koreys milliy qo'shig'i va boshqalar;

Ijro etuvchilar nomini ifodalovchi tushunchalar: 무회 [muhve], 무용가[muyongga], 무당 [mudang], 미술가[misulka], 음악가[imakga], 악사[aksa], 자곡가[chagokka], trubadur, ohin, baxshi, kobzar va boshqalar; [5]

f) Urf-odatlar va marosimlarni ifoadalovchi tushunchlar: 새색시[sesekshi]-yangi kelin, kelin salom, 결혼식[kyoronshik]-to'y va boshqalar.

g) Bayramlar va xalq o'yinlarini ifodalovchi [4]

h) tushunchalar: 명절[myongchol]-bayram, 새해[yangi quyosh]-yangi yil, 추석 [chusok]-hosil bayrami, qurban hayit, chillak.

i) Mifologiyaga oid tushunchalar: farishta, 당군[tangun], yalmog'iz kampir, uchar gilam;

j) Diniy tushunchalarini ifodalovchi so'zlar: lama, o'ja, abbat, shaman, bonza, gugenot, darvish, haj, machit, pogoda, kostel, sinagoga, hoch, 기독교도[kidokyodo]-xristian, 수녀[sunyo], 성당[katolik cherkovi], 성전[songjon], 신전[xudo], 페하[peha]-hazrat, 예배 [yebe]-ibodat va boshqalar. [8]

1) tavqim sanalarni ifodalovchi tushunchalar: 장마철[changmachol]-yomg'ir mavsumi, 여름철[yorumchol]-yoz chillasi, 겨울철[kyoulchol]-qish chillasi, vayshak, saraton, savr, javzo.

2) Etnik ob'yektlarni ifodalovchi tushunchalar:

a) etonimlar: apachi, bantu, kazak, bask, turk

b) hazil va kinoya ma'nositidagi millatni ifodalovchi laqablar: kacap, bohol, bosh, fric, gringo, yanki

c) yashash joyga mansub aholi nomlari: taraskonlik, gobravalik, evemlik, vodiyilik, 미국인[migukin], 한국인[hangukin], 외계인[vegein] [4]

d) Ijtimoiy -siyosiy tushunchalarni ifodalovchi realiyalar:

1) Administrativ-hududiy tushunchalarni ifodalovchi so'zlar:

a) Hududiy-boshqaruv tushunchasini ifodalovchi birliklar: gubernya, departament,



kanton, voevodstvo, tuman, viloyat, 주-viloyat, 왕도[vangdo]-qirollik, 왕정[vangjo]-tuman, 지배[chibe]-ovul, 부통령[putongryong]-respublika,

b) Aholi turar joylari nomlarini idodalovchi tushunchalar: arrondisselean, versal, kremel, agora, ichkari, tashqari, rabot, ark, hovli, ayvon, 집[chip], 마당[madang], 밖에[pakke], 지역[chiyok], 지구[chigu], 시골[shigol] [4]

c) Hukumat organlari va lavozimlarini ifodalovchi tushunchalar: qurultoy, senat, ijroqum, hokim, seym, duma, rada, getman, municipalitet, palata, 국회[kukhe]-kongres

d) Kansler, xon, amir, shoh, farun, lord, myer, sherif, vazir, getman, regent, aytulla, sheyx, 대동령[tetongryong]-president, 부장님[pujangnim]-direktor, 회장님[hejangnim]-rais, 지배인[chibein]-ta'sischi, 장관[changkvan]-vazir, 반장[panjang]-brigadir [4]

e) Unvon, daraja, titul(mansabi)ni, murojaat shakllarini ifodalovchi so'zlar:bakalavr, magistr, agreje, knyaz, shahzoda, graf, baron, gercog, lord, syer, madam, miss, 아줌마[ajumma], 교수님[kyosunnim], 소님[sonnim] va boshqalar. [5]

f) O'quv yurtlari, madaniyat muassasalari nomini ifodalovchi so'zlar: o'rta maktab, kollej, lisey, madrasa, 조등학교[chodinghakkyo], 고등학교[kodinghakkyo], 학교[hakkyo], 대학교[tehakkyo] [4]

g) Irq, toifa va ularga mansub kishilar nomini ifodalovchi so'zlar: dvoryan, krepostnoy, yunker, brahman, samuray, barin, faqir, 부자[puja], 부[pu], 재산[chesan], 양반-boylik, boy, zodagon), 비민[pimin], 영세민[yongsemin], 주소득자[chusodikcha], 카드게임[kadikegim]-kam ta'minlangan, kambag'al), 귀족[kvijok]-oqsuyak, 쇠[shvi]-avom, 공무원[kongmuvon], (관용어사전 .-태학사.-1996:21) 관 공리[kvangonli], 역원[yokvon]-amaldor), 논부[nongbu], 소작농[sojaknong], 농군[nongun]-dehqon, yerli xalq), 장색[changsek], 기술공 [kisulgong]-hunarmand, 흑은[higin], 니고로[negiro]-negr, 힌두교[hindugyo], 신자[shinja]-dindor[7]

h) Qism nomini birdiruvchi so'zlar: legion, falanga, o'rda, legiya, kogorta, lashkar, qo'rboishi, 부대[pude], 군대[kunde], 병력[pyongryok]-qo'shin, lashkar, harbiy okrug, [4]

Bolgar olimlari realiyalarni mahalliy shart-sharoitga ko'ra klassifikatsiya qilar ekanlar yuqorida nomlari keltirilgan tushunchalarni muayyan millatga mansubligi, ularning boshqa tillarga o'girishdagi xususiyatlari nuqtai nazaridan tasnif qilishni alohida ta'kidlaydi. [6] Shunga ko'ra ular realiyalarni bir til qobig'ida muayyan xalqqa, territoriyaga mansub realiyalar va tarjima tillarida ishtirokiga ko'ra ichki va tashqi realiyalarga kirib borishi, keng ishlatalishiga ko'ra ularni milliy, lokal, mikrolokal va internatsional realiyalarga ajratish mumkin. Milliy realiyalar odatda faqat asliyat tiliga mansub bo'lgan tushunchalarni ifodalaydi. Masalan 가마[kama] old tomon ikki kishi, orqa tomonidan ikki kishi ko'tarib yuradigan koreys zodagonlarining milliy transport vositasini anglatadi. Shu jihatlari bilan ular millat yashaydigan hududlarning ma'lum bir bo'lagida yashovchi aholining o'ziga xos tushunchasi bo'lsa, ular lokal, mikrolokal, harakatiga ega bo'ladilar, Aynan mana shunday realiyalar tarjimada asliyat, ijtimoiy-siyosiy voqeliklardan yaxshi xabardor bo'lishlikni talab qiladi.

O'zbekcha tarjimada:

"U pastor bilan do'stlashib qoldi va tez-tez koreyscha shashka o'ynrdi. Ushbu cherkovda cho'qintirilganidan so'ng bir hafta o'tgach, u xotirjam vafot etdi."

Ruschada tarjimasi

"Он подружился с паспортом и часто играл с ним в корейские шашки"

"아버지께서는 목사하고 친구가 되고 빠른 체커를 하셨어요. 이 작은 성당에서 열십자를 그리기 후에 1주 후에 죽었습니다.[7]

Internatsional realiyalar ijtimoiy, siyosiy, madaniy aloqalar tufayli boshqa tillarga o'tib qolgan so'zlarni ifodalaydi. Ular bunday holda ham milliy, mahalliy koilorit saqlab qolishiligi bilan xarakterlanadi. Masalan, inglizcha cowboy-aslidida "otliq bola" degan ma'noni anglatad. [2] Hozirgi paytda bu so'zlar ko'pgina tillarga "kovboy" shaklida o'tib, "qo'rquv bilmas", "avanturyurist"-sarguzash ishqibozlisi sifatida o'tgan. Ispancha "sombrero"- oddiy shlyapa, bosh kiyimini ifodalovchi lokal realiya va u bizning tilimizga "girdlari keng shlyapa" ma'nosida o'tib internatsionallashgan. Ijtimoiy hayotning muayyan davriga xos realiyalar: zamonaviy va tarixiy realiyalarga bo'lib o'rganiladi. Shunga ko'ra badiiy asar tarjimasida bu faktor tarjimondan realiya ifodalangan tarixiy-armaik ma'noni yaxshi bilishlikni talab qiladi. Ko'pgina tarixiy realiyalar bizning



davrimizga kelib arxaizmlarga aylanib qolgan.Masalan: ruscha-pomeschijk, zemstvo, o'zbekcha-batral, qirol, qulqoq so'zlari.[6]

Asardan keltirilgan quyidagi parchani asar qahramonining o'tmishi bilan birgalikda Koreaning o'sha paytdagi ijtimoiy ahvoli haqida ham axborot beriladi:

Tarjimada:

"O'shanda aroq tayyorlanganda qoladigan don qoldiqlari yagona taomimiz edi.-ular eng arzon taomlar sanalardi.Aslida bu bug'doydan alkogolli ichimlik siqib olingach, qoladigan don tuppasi edi. [6]

Ruschada tarjima:

«Тогда мы питались одними зерновыми остатками после приготовления водки, это было самой дешевой едой. То есть, это были остатки от зерна, после того, как из них приготавляли алкогольный напиток».

Asliyatda:

그 때는 술을 만들 때 넘는 곡물이 한개 음식이었고- 그들이 제일 값이 싼 음식이었습니다. 사실은 이 밀로 주정수를 만들 후에 넘었는 나머지였다.[5] Tarjimashonoslikda zamonaivi va tarixiy realiyalarni aks ettirishda asliyatga mansub bo'lgan mamlakatga xos tarixiy davrlarni, muhim ijtimoiy-siyosiy voqealarni, adabiy oqimlar, muallifning qaysi oqimiga mansubligini bilish ham muhim ahamiyat kasb etadi.Masalan, o'zbek adabiyotidan biror xorijiy tilga tarjimaga qo'l urgan tarjimon o'zbek xalqining ijtimoiy-siyosiy tushunchalarini quyidagi davrlar orqali aniqlab aks etishi mumkin. [5]

1)IX-X asrlardan boshlab O'rta Osiyo Rossiya tomonidan bosib olingungacha bo'lgan davr.

2)Sobiq SSR davrida vujudga kelgan realiyalar

3)O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi davrda tilimizga ichki va tashqi realiyalar nuqtai nazaridan o'rganishlari mumkin.

Bolgar olimlar zamonaivi realiyalarni tasnif qilar ekan, ularni tanish va notanish realiyalarga bo'lib o'rganishni taklif etdi.Darhaqiqat iqtisodiy, madaniy, siyosiy, aloqalar tufayli tizimga kirib kelgan juda ko'p inglizcha, ruscha, fransuzcha va hokazo realiyalar allaqachon o'zlashtirilgan so'zlarga, ya'ni lug'at tarkibimizdan mustahkam o'r'in olgan. Masalan:

Inlizcha-sir, miss, goodbye, hello, biznes, biznesmen.

Ruscha-soldat, kurtka, stakan, prujina,odeyal kabi so'zlar barcha o'zbeklarga tushunarli bo'lgan tanish leksikasiga aylanib ketgan.Vaholanki, yaqindan beri tilimizga kirib kelgan diller, menejer, markting, grinchol va hokazo so'zlar notanish so'zlar sifatida barchaga tushunarli bo'lmasligi mumkin.Realiya klassifikatsiyasini chuqur o'rgangan Surxandaryolik olim I.K.Mirzayev bolgar olimlarning fikriga qo'shilgan holda xorijiy matbuot organlari nomalarini L.humnature, "Figaro" "Revue de Dieu-Monde" va xalq an'analari, urf-odatlari, arxitektura yodgorlik, maydon nomlarini, frazeologizmlarda ifodalagan xos ma'noli birliklarni ham realiyalar sifatida o'rganishni taklif qiladi.[8] Realiyalardan ko'proq atamalarga (terminlarga)yaqin turuvchi bu so'zlarni asliyatdan rus tiliga 1)transkipsiya va transliteratsiya;2) rus tilida mavjud, ana shunday ma'noli so'zlar orqali tarjimada berilishini kuzatishimiz mumkin.

Realiyalarni tarjima qilishning quyidagi keng tarqalgan usullari mavjud:

1. To'liq va qisman asariga harfma-harf ko'chirib o'tkazildi.Masalan: inglizcha "pudding" ruscha "пудинг", koreys tilidagi "한복" o'zbek tiliga ham "hanbok", yoki ingliz tilidagi "ice cream" koreys tiliga "아이스 크림"[aiskrim],"cake"- "케이크"[keyk]-tort, shunindek rus tilidagi "Ручка" so'zi o'zbek tilida ham "Ручка", ingliz tilidagi "pen"- "Ручка" so'zi koreys tilida ham "펜"[pen], "wedding party"- "웨딩 파티" [wedding pate] (nikoh to'y bazmi) tarzida o'tgan.[9]

Qisman transliteratsiya qilinganida asliyatdagi so'zning o'zagi ishlatilib, o'zlashtirma so'z hosil qilinadi.Masalan, chek tilidagi "kalhoty" so'zi ruschaga

"Колготки" tarzida o'rganiladi.

2. Tarjimada asliyat tiliga o'z ma'nosi va funksiyasi yaqin bo'lgan yangi so'zlarni yaratish. Masalan: inlizcha "skysraper" so'zi rus tiliga "Небоскреб" tarzida tarjima qilingan.



3. Asliyat tildagi xos so'zlarning tarjima qilinayotgan tilidagi sinonimini topish. Masalan: nemischa "haupnnann" rus tiliga "Капитан" tarzida tarjima qilinadi, Koreys tilidagi "아가씨" so'zi ishlataladigan o'rniда o'zbek xalqida "opa", "yanga", "kelinoyi", "singlim" kabi o'zbek xalqiga xos so'zlar bilan tarjima qilinsa asliyat mazmuniga putur yetishi yoki voqeanning ta'sir darajasiga ziyon yetishi mumkin. Shuning uchun asliyat tilida ifodalangan hodisaning ta'sir doirasiga zarar yetkazishi mumkin. “새해” - yangi yil, “두” - “1pud”, “흡” - “hovuch”, “부채 춤” - “yelpig’ichli raqs” (koreys milliy raqsi), “가는 말” - “고와야 오는 말이 곱다” - yaxshi so'zga ilon inidan chiqar, yomoin so'zga pichoq qinidan chiqar” yoxud, “nima eksang, shuni o'rasan”, “키가 작다고 세 살 난 얘기보다 더작을까? “Xotbi rostom mal”. [10]

-“Aql yoshda emas-boshda” va shu kabi muqobil varianti tanlanib tarjima qilinadi.

Хоть ростом и мал, да разве меньше взрослого ребенка

4. Tasviriy-izohlash usuli esa asliyatdagи xos so'z tarjima qilinayotganda bir necha so'z bilan imzolanadi. Masalan: rus tilidagi “yxa” ingliz tiliga “fish” (baliq sho'rva) tarzida tarjima qilinadi. Bu usul qo'llanilganida tasvirlash, isbotlash uchun ishlataladigan so'zlar matnda realiya so'zidan keyin beriladi. Yoki realiya satr ostida snoska tarzida keltiriladi. “추석” Chusok (oy tavqimi bo'yicha 15-avgus xotirlash kuni) Koreys milliy bayrami, “돌잔지” [tolchanchi]- bola 1 yoshga to'lгanda o'tkaziladigan marosim, “설날” - “yangi yilning birinchi kuni-1-yanvar”, “한글” - koreys tili alifbosi.

Bu usul tarjima asariga haddan ziyod ekzotik bo'yoq berib, tarjima asarining ma'rifiy qiymatini oshirmaydi. Vaxolanki, tarjima qilinayotgan tilda milliy, tarixiy xususiyatlarga ega bo'lган bunday so'zlarning muqobillari mavjud. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki milliy realiyalar tarjimada ifodalanishini o'rganish birinchidan baiiy asardagi milliy o'ziga xosliklarni ifodalash usullarini aniqlab tarjimonlar uchun amaliy va nazariy bilimlarini takomillashtirishga yordam beradi, ikkinchidan, bilvosita va bevosita tarjima jarayonida qo'lga kiritilgan boy tajribalarni umumlashtirishga, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni aniqlab asarning g'oyaviy mazmunnini chuqurroq anglanishiga olib keladi. Asliyatda ifodalangan milliy realiyani tarjima tiliga tushunarli o'girish muammosi xorijiy muhit va shart-sharoitlarni kitobxon oldiga ochiq oydin joylashtirish mas'uliyatini yuklaydi. Biroq, transliteratsiya orqali berilgan so'z izohlanmasa, tushuntirilmasa, kitobxon tasvirlanayotgan voqeа-hodisani va so'zlar bayoniga tushunmay qoladi. [12] Bu o'rinda transliteratsiya qilingan soz' kontekst ichida tasvirlanib tushuntirilishi, ma'nosi qavs ichida berilishi, yoki matn ostida izohlanishi mumkin. Bunday tarnsliteratsiya asosli transliteratsiya deyiladi. Asosli transliteratsiya kitobxon tasavvurini boyitadi, nutq boyligini, dunyoqarashini kengaytiradi. [12] Shunday qilib, realiyalar tarjima tilining boyishiga ham sabab bo'ladi. Bularning barchasi asliyatda ifodalangan realiyalarni kitoibxon ko'z oldida aynan jonlantiradigan ifoda vositalarini vujudga kelishiga yordam beradi.

Asliyatda:

내일은 정 또 주목을 드렸다. [10]

Tarjimada:

“Ertasiga Chong yana po'stagimni qoqdi”

Ruscha tarjimasida:

На следующий день Чонг опять метал молнию

O'zbek kitobxoni tasvvurida yuqorida qo'llangan “po'stagimni qoqdi” iborasi orqali rahbar va xodim o'rtaсидаги holat aniq va tiniq ko'rsatilib berilgan. Tarjimada ishlataligan juda ko'p so'zlarning o'zbekcha muqobillari mavjud bo'lgani holda, ularning ruschada ekvivalentlaridan foydalanilganligi bu o'zbek adabiy tilining so'z boyligini ko'paytirish uchun emas, balki adabiy til meyyorlarini buzilishiga olib kelishi mumkin. [11] Masalan vilka, programma, morojennoe, sutka, salfetka, refrejerator, tormoz, buksir, turist va sh.k. To'g'ri bu so'zlar rus tilining ta'siri tufayli o'zbek kitobxonlariga ham tanish tushunchalrni ifodalaydi. Biroq, o'zbek adabiy tilida ular ifodalaydigan sanchqi, dastur, muzqaymoq, bir kun, qo'l sochiq, muzlatgich, to'xtatgich, sayyoh kabi leksik birliklar mavjud bo'lgani holda ruscha atamalarni ishlatalish g'alati tuyuladi. [3] O'zbek tiliga rus tili orqali kirib kelgan va o'zbekcha ekvivalentlari mavjud bo'lmagan tushunchalarni ifodalovchi xos so'zlar mavjud. Tarjimon ularni hech qanday izohlarsiz transliteratsiya usulidan foydalanib, o'zbekcha matnga kiritishga majbur. Masalan “Samsung”, “Hende”,



“Chungang ilbo” va boshqalar. [3] Bu kabi holatlarni bizlar ko’plab uchratishimiz mumkin va bu bevosita har bir tarjimonda, tarjima jarayonida hech qanday qynchilik tug’dirmasligi zarur.

Hozirgi kunda Janubiy Koreya va O’zbekiston Respublikasi o’rtasidagi diplomatik aloqlar eng yuqori nuqtasiga chiqdi desak adashmaymiz va kelasi ikkindavlat o’rtasidagi munosabatlarning 30-yilligini nishonlah arafasida turibmiz, ammo ushbu diplomatik aloqlarning ilk ildizi uzoq moziy ya’ni 1400-yil avval Samarqandning “Afrosiyob” shahriga tashrif buyurgan ikki koreys elchisi bilan boshlanadi desak adashmagan bo’lar edik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Власенко С.В. Перевод юридического текста: когнитивные особенности номинации и реалии-професионализмы в языковой паре английский-русский// Филолог. науки в МГИМО. Сборник научных трудов, № 21(37)-M: МГИМО(y), 2005.
2. Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2005. – 352 bet.
Uz Kor Economy2017년(www.uzkoreconomy.com)
- Виноградов, В.В. О языке художественной прозы: Избранные труды / В.В. Виноградов. – М.: Наука, 1980. – 360 с.
Ли Мён Бак. Чедес не бывает. Узбекистан”, Ташкент,-2009.
- 손세모돌-국어 보조용인 연구, 한국문 회사, 서울, 1996.
3. 문화속 한국어. 전미순 저,2009년
4. 남기심. 국어연결어미의쓰임. - [서울]: 서광학술자료사, 1984. – 424.
5. Koreyscha-o’zbekcha lug’at. 40000 Kim Chun Sik.Toshkent 2002.
6. 새한노사전=Новый корейско-русский словарь/한국외국어대학교 노어과 편 저,-개정판-서울:한국외국어대학교 출판부,2009.
7. Русско-корейский словарь. 러시아어-한국어 사전, 전국총판-서울팡진구군자 등,-2012
8. 타쉬켄트국립동반대학교. 한국어문학과. 2005
9. 한효석.이렇게 해야 바로 쓴다.한겨레신문사.1995.
10. 김수정. 한국어문법교육을위한연결어미연구. - [서울]: 한국문학, 2004. – 402.



**O’ZBEK TILI DARSLARIDA TALAFFUZI QIYIN BO’LGAN HARFLAR VA ULARNI
O’RGANISH BO’YICHA TAVSIYALAR**

Kuchkarova Fazilat Zarifovna

Xorazm viloyati Urganch shahar
8-sون IMI ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o’zbek tili darslarida talaffuzi qiyin bo’lgan harflar va ularni o’rganish, oson o’zlashtirish bo’yicha ayrim tavsiyalar berilgan.

Kalit so’zlar: o’zbek tili, ona tili, talaffuz, x va h harflari, nutqiy, matab, o’quvchi, daslik, imlo.

Bugungi kunda ta’lim sohasiga berilayotgan e’tibor oshib bormoqda. Xususan, davlat tilining o’qitilishida uchraydigan muammolarni bartaraf qilish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Shundan kelib chiqib har bir o’qituvchi oldiga o’quvchilarda nutqiy malakalarni ehtiyoj darajasida shakllantira olish zarurati ko’ndalang qo’yilmoqda. Har bir o’quvchi o’z ona tilida ravon gapira oladi. Istalgan muloqat vaziyatiga mos so’zlarni (xoh rasmiy, xoh og’zaki) nutq bo’lsin jozibali, ta’sirchan ifodalay olishadi. Ammo ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda o’zbek tilining o’qitilishi bir qancha muammolarga duchor bo’lmoqda. Darslarni o’tish davomida ta’lim boshqa tillarda o’qitiladigan maktablarda ayrim tovushlarning talaffuzi, ularning yozishlari o’quvchilarimizda qiyinchiliklar tug’dirilmoqda. Kuzatishlarimizdan ma’lumki, o’ unlisining talaffuzida o’zgachalik bor. Aksariyat hollarda i-e, u-o’, h-x tovushlari e’tirof etgan so’zlarni o’quvchilarimizning yozishi va aytishida xatoliklar uchraydi. Qoraqalpoq tilida h tovushi ko’p qo’llanilmaganligi uchun o’quvchilarimiz x va h undoshlarini qo’llashda qiynalishadi. X va h undoshlarining imlosining murakkabligi barchamizning tashvishga soladi. Shu paytgacha eng samarali usul sifatida ushbu harflar bilan yoziluvchi so’zlarni yodlab qolishni ta’kidlamoqdamiz. Ammo bundan soddarroq usul talaffuz bilan bog’liq.

Maktabda o’quvchiga o’zbek tili darslarida faqat grammatika qoidalari yodlatish mumkin emas. O’quvchilarga harflar farqini tushuntirib, mashqlar yordamida ifodalab berishimiz shart. Buning uchun biz o’zimiz o’quvchilarga og’zaki nutqni ravon o’rganishga chorlashimiz kerak.

Калит сўзлар. Компонент, фразеологизм, соматика, интенционал фразеологизм, лексема, бирикма, постулат.

Маълумки ҳозирги ўзбек тилида фразеологизмлар икки компонентлидан ўн компонентли ва ундан зиёд компонентли бўлиши мумкин¹. Гапга тенг бўлган фразеологизмлар асосан кўп компонентли бўлади. Масалан, “*кўз олайтироқ*” интенционал фразеологизми икки компонентли бўлса, “*кўзи тўрт бўлмоқ*” уч компонентлидир. “*Қош қўяман деб кўз чиқармоқ*” фразеологизми эса беш компонентлидир. Мисоллардан кўринадики, интенционал фразеологизмларни ташкил этган компонентлар турли хил сўз туркумларига тегишлидир. Бунда мустақил сўз туркумларидан ташқари, ёрдамчи сўз туркумлари ҳам иштирок этади. Масалан, ушбу фразеологизмнинг компонентлари қуидаги сўз туркумларига тегишлидир: “*бир ўқ билан икки қуённи нишонга урмоқ*” – сон-от-боғловчи-сон-от-от-феъл.

Ўзбек тилида фразеологизмларнинг кўпи инсоннинг ҳаёти, турмуш тарзи, фаолияти, жисмоний ҳолати билан боғлиқ равишда яратилган. Шунинг учун ҳам ўзбек тили фразеологизмлари таркибида соматик лексемалар асосий ўринни эгаллайди². Соматик компонентлар фразеологик бирликлар таркибида констант (ўзгармас) компонент сифатида иштирок этади ва турли образларда шаклланади³. Метонимия йўли билан кўчириш, асосан, соматик фразеологизмларнинг семантикасини шакллантиришда иштирок этади. Қуидаги мисолда интенционал табиатга эга соматик компонентли фразеологизм қатнашган: *Вақт ўн беш дақиқа кам ўн тўрт*. Унинг тушилкка боришига *оёғи тортмаётганди*. Бунинг иккита сабаби бор. Биринчидан, онаси «Янги йилни биз билан бирга кутасан», деб тинчлик бермайди. Иккинчидан, *Олиянинг сўзсиз мискин қараашлари, ўғлининг ётсираб туришларини кўриб юраги эзилади*. (Абдуллаев А., 132)

«Оёғи тортмаслик» ибораси бир ишни қилмоқчи, бир жойга бормоқчи бўлиб, дафъатан бунга хоҳишнинг сўниб қолишига нисбатан ишлатилади ва фақат салбий оҳангни ташийди⁴. Интенционал иборалар орасида энг кўп қўлланиладиганлардан биридир.

Бунда метонимия-синекдоха типида маъно кўчиши юз беради. Чунки бу ҳолатда одам тана аъзоларининг қисмлари номлари шахснинг ўзига нисбатан

маънода қўллана бошлайди. Демак, қисмнинг номи бутунни ифодалаш учун хизмат килади. Масалан, «бош» соматик лексемаси фразеологизмлар таркибида шахсга хос бўлган хусусиятларни, уларнинг характеристини, у билан боғлиқ ҳодисаларни ифодалайди. Бу фразеологизмлардаги шаклланган маъно шахснинг фақат тана аъзосига тегишли бўлмай, у билан боғлиқ ҳодисаларни англатади⁵.

Ўзбек тилининг фразеологик бойлигига қўз соматик лексемаси иштирокида шаклланган иборалар сонининг кўплиги ва хилма-хиллиги билан ажralиб туради⁶. Айтиш жоизки, уларнинг катта қисм интенционал табиатга эга. Хусусан, ўзбек тилининг фразеологик луғатида мазкур лексема асосида шакллантирилган 59 та фразеологизм қайд этилган

¹ Маматов А.Э . Кўрс.манба. – Б.35

² Маматов А.Э . Кўрс.манба. – Б.35

³ Маматов А.Э . Кўрс.манба. – Б.112

⁴ Саттор М. Ўзбекнинг гапи қизик. – Тошкент: тафаккур каноти, 2011. –Б. 147

⁵ Маматов А.Э . Кўрс.манба. – Б.100

⁶ Маматов А.Э . Кўрс.манба. – Б.100



(вариантларисиз). Лекин бу чегара эмас, чунки тилда бир қатор индивидуал-муаллиф фразеологизмлар ҳам мавжудки, улар «ЎТИЛ»ларда ўз ифодасини топмаган¹. Кўз соматизми феъл лексемаси билан биришиб, икки компонентли феъл фразеологизмларини ҳосил қиласди. Бунда «кўз» лексемаси тўғри маънода, феъл компонент эса кўчма маънода кўлланиб, фразеологик маъно юзага келади. Фразеологик маъно эса «кўз» лексемасининг мантиқий асосига қурилган бўлади. Бундай бирикмалар эркин бирикма тарзда ишлатилмайди. Улар маъно шаклланишинг спонтан турига кўра шаклланади. Мисоллар: *Ўшанда огаси Муҳаммад Шарифнинг Эски Новқатдан қайтиб келишини кўзи тўрт бўлиб куттиб ўтирган Ойхонпошиша анча аввал бошлиб қўйган мана бу газалини охирига қадар битди... (Исмоил А., 145);*

Бир тарафдан тобора кексайиб бораётган онаси, кўзлари йўлига нигорон ўғли, касалванд аёли, иккинчи тарафда дунёларга алмаштираси муҳаббати ва Баҳори... (Абдулаев А., 123);

Саидий кўзларини катта очди, қаршиисидаги зарҳал рамкали каттакон тошойнага тикилди: ойна кўзига, негадир, ниҳоятда чиройли, жуда кўп одамлар орзу қилган, кўз тиккан бир нарса бўлиб кўринди. (Қаҳҳор А. Сароб, 253)

«Кўзи тўрт бўлиб кутмоқ» ибораси муайян истак объектини интизорлик ва зўр умид билан кутишга ишора қиласди, бўрттириш маъносида кўлланилади. Шу жиҳатдан олиб қаралса, юқорида келтирилган 1 ва 2 - мисолларда кўлланилган иборалар муайян даражада маънодошdir. 2-мисолда контекстда бироз қатъиятсиз умид ифодаси мавжуд. 3-мисолдаги «кўз тикмоқ» ибораси маълум бир истак объекти томон қатъий интилишни билдиради ва ушбу вазиятда маънодош бирлик билан уюшиб келиши хабар мазмунининг интенсивлашишига асос бўлган.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ахмедова М. Фалсафа асослари. -Тошкент: Ўзбекистон, 1998. - 340 б. 1.1.28. Аъзамов А. Муножатнома. Алишер Навоийнинг “Муножат” асари хақида мулоҳазалар. -Тошкент: Маънавият, 2001. -126 б.
2. Аппел К. Москвадаги «Кобра». -М.: Художник, 1997. -284 б.
3. Барт К. Севимли асари: Семиотика. Поэтика: Пер. с фр. - М.: Тараққиёт, 1994. -326 б.
4. Барт К. Догматикага оид иншолар: 1946 йил ёз семестрида Бонн университетида ўқилган маърузалар. - СПб.: Алетейя, 1997. -271 б.
5. Барт К. Римлянамга хабар. - М.: Библейско-богословский институты св. Апостол Андрея, 2005. -580 б.
6. Барт К. Мгновения. - М.: Библейско-богословский институты св. ҳаворий Андрея, 2006. - 160 п. 1.1.34. Барт К. Асослаш ва тўғри. - М.: Библейско-богословский институты св. Апостол Андрея, 2006. - 149 п.

1 Маматов А.Э . Кўрс.манба. – Б.100



TEACHING ENGLISH BY USING SONGS

Azizova Lola Abdusaminovna,
an English teacher, Namangan region,
Kasansay district, school № 20 Tel: +998 91 3437841

Annotation: In this article, we will share not only recommendations on how to learn the language from songs, but also the English songs themselves for easy mastering. Do not hesitate and sing along, because learning English by songs is not only easy, but also fun.

Keywords: teaching, songs, remember, role, communication, vocabulary, using

A significant role in the development of students' communicative competence, as is known, is occupied by language skills, on which the level of formation of speech activity directly depends. Songs in English lessons bring to the learning process not only a moment of creativity. Songs in English lessons are used not only when teaching children, but also when teaching adults, especially when it comes to learning a language from scratch. E.K. Karpichenkova formulated the methodological advantages of songs in learning a foreign language:

- songs as one of the types of speech communication is a means of stronger assimilation and expansion of the lexical stock, because it includes new words and expressions.
- in the songs, the already familiar vocabulary is found in a new contextual environment, which helps to activate it.
- proper names, geographical names, realities of the country of the language being studied, poetic words are often found in songs.
- this contributes to the development of students' feelings of language, knowledge of its stylistic features;
- grammatical constructions are better assimilated and activated in songs.

Songs can be used as a valuable teaching and learning tool. Using songs can help learners improve their listening skills and pronunciation; they can also be useful for teaching vocabulary and sentence structures. Probably the greatest benefit to using songs in the classroom is that they are enjoyable. The song material can be used at any stage of the lesson, but it is necessary to follow a certain sequence of working with it in the lesson. Of course, for adults, not game songs are selected in order to defuse the situation, but with the maximum semantic load. Songs in English lessons as a way to train perception by ear. In English, the pronunciation of words is very different from the spelling - there are quite a lot of letter combinations that are read quite differently from how they are written. Using songs in the learning process allows you to train not only hearing, but also perception. At first, familiar words are recognized, then the meaning of the whole song.



It's no secret that reading, translating with a dictionary and listening to English speech are different things. Students will have to learn to hear and understand English. Songs in English are the best way to contribute to the process of assimilation of the acquired knowledge. When teaching children, songs allow you to pause, defuse the situation, give the child a rest and concentrate again, and then when teaching adults, song material is used more as a way to train the perception of English speech by ear.



fly.fly.fly
the butterfly
in the meadow
is flying high
in the garden
is flying low
fly.fly.fly
the butterfly

G A. Chesnovitskaya, for example, believes that the methodology of teaching kids a foreign language is based on four types of work: play, movement, music and visibility. Lyrics combined with rhythm and music are easier to remember, increase motivation to learn and create a favorable classroom environment



Songs in which vocabulary is learned through movements, for example, —If you are happy, -Head and shoulders, etc., help to master vocabulary better, learn commands, work out any lexical topic. The words of this song are as simple as possible, it is not difficult to work with such materials, selecting them beforehand, according to the thematic orientation. I use songs in lessons at the stage of consolidating the material, when we have already studied

a new lexical or grammatical topic, and with the help of songs I want to work out this topic with the student. I have a few songs that we definitely listen to with students. Songs used for learning, you can share and present on the following topics: alphabet, numbers, colors, weather, animals, my family and I, body parts, toys, weather, food, character, profession, rules of the road movement, music and art, fairy tales and complexity of these topics on the middle and older stages of learning. From my experience, I can say that I can hear a song hundreds of times, but not understand all the words from it. But at some point, an epiphany comes, and you begin to hear previously indistinguishable words. And then, like a child, you rejoice in this small, but still victory! So the songs are motivating.

Thus, children can depict any actions, dance and sing, draw and make crafts, play different games, repeating after the teacher, learn the language and culture of the country of the language being studied in full without much explanation and difficulty.

Based on all of the above, it can be concluded that the use of song material in foreign language lessons is the most modern, effective and versatile way to study not only the phonetic aspect of a foreign language, but also the linguistic, cultural, general communicative and moral aspects of both the native language and a foreign one. I will conclude that the songs are a great educational material, but you need to choose them wisely.

References:

1. Kurniarti, Dwi. 2017. The Effectiveness Of Song Lyrics To Teach Student's Vocabulary.
2. Millington, Neil T. Using Songs Effectively to Teach English to Young Learners.
3. Putri, Adhe Lelyana Kisworo. 2015. The Use Of Song Lyrics For Teaching Vocabulary.




INGLIZ TILI DARSLARIDA ILG’OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISH

Hakimova Muxlisa Bahodirovna
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani
15-umumiy o’rta ta’lim mabki
ingliz tili fani o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tili darslarida ilg’or pedagogik texnologiyalardan foydalananish haqida to’xtalib o’tilgan.

Kalit so‘zlar: Pedagogik texnologiya, “Ilg’or pedagog”, “Ijodkor o’qituvchi”...



Pedagogik texnologiya bosqichma-bosqich qo’lga kiritilar ekan, uning bosqichlarini qarab chiqaylik. Pedagogik texnologiyani egallash eng avvalo, tinimsiz mehnat, har bir o’qituvchining o’z ustida ishlashini taqozo qiladi. Bu ish dastlab ilg’or pedagogik tajribalarni o’rgatishdan boshlanishi lozim. Ilg’or pedagogik tajribalarni o’rganish va yoyish o’qituvchilar uchun o’z kasb mahoratlarini takomillashtirishning tajribali o’qituvchilarini takomillashtirishning eng qulay shaklidir. Ilg’or pedagogik faoliyatga ijodkor va novatorlarga yondoshib, o’quvchilarga ta’lim va tarbiya berishning yangi yo’llarini izlab topishdir. Keyingi paytlarda “Ilg’or pedagog”, “Ilg’or o’qituvchi”, “Novator pedagog” tushunchalari matbuot sahifalarida, pedagoglarning o’zaro suhbatlarida, uslubiy kengash, seminarlar ko’p tilga olinmoqda, lekin ular asosida uncha yangi emas.

“Ilg’or pedagog” avvalo, boshqa o’qituvchilarga qaraganda o’z ishiga mu’suliyat bilan qaraydi. Shu sohadagi ijobiy tajribalarni o’rganib o’z darslarida, matabda va sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarda qo’llaydi. Shu orqali o’quvchilarni ta’lim va tarbiyasida muayyan yutuqlarni qo’lga kiritadi.





“Ijodkor o’qituvchi”da ham “Ilg’or pedagog”dagi xususiyatlar bo’lishi mumkin. Ularning jiddiy manbalarni o’rganib shular asosida ish olib borsa, ijodkor o’qituvchi bor manbalarga tanqidiy ko’z bilan qaray biladi, ko’p hollarda mavjud uslubiy yo’l-yo’riqlarga o’z munosabatini bildirib, sharoit va vaziyat taqozosiga o’zining imkoniyatlariga qarab mavjud tartiblardan farqli metodik usullardan foydalanadi.



Match the parts.

The swallow flew down and

can only say “bzzz”.

When a swallow makes a nest in your home,

to eat the sweetest meat in the

The mosquito could

bit the mosquito’s tongue.

The snake wanted

don’t like each other.

From that time on the mosquito

it is very good for you.

The snake and the swallow

not speak.

Ilg’or pedagogik tajribalarni aniqlashda ma’lum mezonlarga asoslanishi kerak. Bunda eng muhim mezon o’qituvchi o’z pedagogik faoliyatida qullaydigan ta’lim-tarbiyaning yangi shakl, metod va usulidir. Bu mezon ilg’or o’qituvchini oddiy o’qituvchilardan ajratadigan eng muhim belgisidir.

Dars - bu ijodkorlik, lekin ijodkorlik faqat o’qituvchi uchun emas, balki avvalo bor o’quvchi uchun ham ijodkorlikdir. O’quvchini darsda faol qatnashmasligi darsning muvaffaqiyatsiz bo’lishiga olib keladi. O’qituvchi darsda o’quvchilar hamkorligisiz qanchalik mehnat qilmasin, u darsda yakkalanib qolgan holda o’ziga o’zi dars o’tadi.

Dars har bir o’quvchini ijodkorga aylantirish, ularni darsda faol bo’lishga, qatnashishga, doimo fikrlari bayon etishga tayyorliklari - o’qituvchining pedagogik mahoratini belgilaydi. Bunday o’qituvchi o’quvchini bilim olishga qiziqtira olishi, undagi yashirinib yotgan motivatsiyalarini ro’ybga chiqarishi, buning uchun ko’ngliga yo’l topish lozim. Avval qiziqtirish, so’ngra o’rgatish lozim.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1.Xoshimov O’. Yoqubov I. Ingliz tili o’qitish metodikasi. “Sharq” nashriyot-matbaa AK bosh tahririysi.

2.vvv.google.uz, vvv.learnenglish.com




ZAMONAVIY TA’LIMDA INGLIZ TILI TEXNOLOGIYALARI

Murodova Dildora Rajabovna
Navoiy viloyati, Qiziltepa tumani
15-umumi o‘rtta ta’lim maktabi
ingliz tili fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tili darslarida zamonaviy usullar xususida so‘z boradi.
Kalit so‘zlar: rasmlar bilan solishtirish, tinglash, takrorlash, mashqlar...

Ma’lumki an’anaviy o‘qitish usuli mamlakatimizda keng tarqalgan. Biroq ta’lim sohasidagi islohotlarni amalga oshirishda an’anaviy ta’limning muhim ta’limiy muammolar o‘z yechimini topa olmayotganligini qator Ilg’or pedagogik tajribalar ommalashmayotganligini kurishimiz mumkin. Demak eski an’anaviy uslub bilan amalga oshirib bo’lmaydi. Shuning uchun fikrimizga biz bu masalani yangi pedagogik texnologiya asosida amalga oshirilishi mumkin.

Xush, yangi pedagogik texnologiyaning o‘zi nima, unga qanday erishib bo’ladi? Yangi pedagogik texnologiya (YAPT)- bu qandaydir mavhum, qul bilan tutib bo’lmaydigan, fahm-farosat bilan amalga oshirib bo’lmaydigan narsa emas. Bu murakkab uzoq davom etadigan jarayondir. Bu jarayon o‘qituvchining bosqichma-bosqich pedagogik mahorat pillapoyalarini egallab uning yuksak pedagogik darajasiga ko’tarilishi kabi nixoyatda qiyin mashaqqatli mehnatning samarasini sifatida har bir o‘qituvchi erishishi mumkin bo’lgan mahorat cho’qqisidir.



Zanjir mashqi

Bu mashq tez-tez ishlatilib turiladi. Zanjir mashqlari yangi til materiali bilan ishslashning eng samarali usullaridan biridir. Ular har bir o‘quvchiga yangi til materiali yoki qurilmani ishlatib ko‘rishga imkon beradi. Ular juda tez bajarilishi mumkin.

Zanjir mashqlari sind mashqidir.

O‘qituvchi yangi materialni tanishtiradi.


M-n.: I like sewing. O‘qituvchi oldin bir o‘quvchi bilan mashq qilib ko‘radi, boshqalar esa kuzatib, tinglashadi. U I like sewing. What about you? deb aytadi. O‘quvchi o‘zi uchun javob beradi va shu savolni (What about you?) so‘raydi. O‘qituvchi o‘zi uchun javob beradi va shu qurilmani shu o‘quvchi bilan yana bir marta mashq qilib ko‘radi. Shundan so‘ng o‘qituvchi o‘quvchilardan ushbu jarayonni quyidagidek bajarishni so‘raydi:

O‘q. 1: I like sewing. (yonidagi o‘quvchi tomon buriladi) What about you?

O‘q. 2: I like reading books. (yonidagi o‘quvchi tomon buriladi) What about you?


O‘q. 3: I like drawing. (yonidagi o‘quvchi tomon buriladi) What about you? va h.k.

Jarayonni tezlashtirish uchun o‘qituvchi Zanjirli mashqini qatorlarda tashkil etishi mumkin.



Ko‘rsatish va aytish mashqlari

Bu mashqdan yangi so‘zlarni mashq qilish maqsadida foydalanildi. U o‘quvchilarga yangi so‘zlarni yodlab olgandan ko‘ra ularni amaliy yo‘l bilan yodda saqlashga yordam beradi.



GET MORE.....

Wildlife Lesson1 Habitat is here



Lion-sher
deer-bug‘u
bear-ayiq
tortoise-toshbaqa
frog-qurbaqa
snake-ilon
bird-qush
crocodile-timsoh
wolf-bo‘ri
tail-dum
forest-o‘rmon
mountain-tog‘
desert-cho‘l
water-suv
habitat-vatan





Hozirgi kunda Respublikamizda chet tillarini mukammal egallagan mutaxassislarga talab ortib borayotgani uchun ingliz tili darsliklarini va qo'llanmalarini qaytadan ko'rib chiqishni ilmiy jihatdan kengaytirish ingliz tilini o'rgatish metodikasi bilan tanishtirishni davrimiz taqazo qilmoqda.

Foydalanimanadabiyotlar:

1. Farberman B “Ilg'or pedagogik texnologiyalar” Toshkent 2000- yil
2. Satarov T “Bo'lajak ingliz tili o'qituvchisini uslubiy texnologiyasi” Toshkent 2003- yil



INGLIZ TILI DARSALARIDA ZAMONAVIY USULLAR

Murodova Maftuna Nodirovna
Navoiy viloyati, Qiziltepa tumani
15-umumi o‘rta ta’lim maktabi
ingliz tili fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tili darslarida zamonaviy usullar xususida so‘z boradi.
Kalit so‘zlar: rasmlar bilan solishtirish, tinglash, takrorlash, mashqlar...

Mustaqil Respublika sharoitida xalq ta’limi uziga xos rivojlanish davrini boshidan kechirmoqda. Bu o‘ziga xoslik eng avvalo ta’lim-tarbiya mazmunini milliyashtirish, ya’ni uzimizning juda boy o‘tmish tariximiz, madaniyatimiz, fanimiz, tilimiz o‘z mohiyati bilan juda chiroyli, yuksak insoniy axloqiy mazmunga ega bo‘lgan milliy urf-odatlarimiz asosida jamiyatimiz kelajagi bo‘lgan yosh avlodni o‘qitish baxtiga muyassar bo‘ldik. Bu narsa barcha muallimlar qatori biz o‘qituvchilarning ham qalbidamizda yuksak g’urur hislarini shakkantiradi. Mana shu sharoitda hammamiz juda katta ko‘tarinkilik bilan jamiyatimizning yosh avlodini yuksak vatanparvarlik, xalqparvarlik, milliy g’urur ruhida tarbiyalashimizni talab etadi. Bu esa ta’lim-tarbiya jarayoniga yangicha yondoshishni, yangicha uslub va mazmun, shakl va vositalardan ham foydalanishimizni taqozo etadi. Eski uslub bilan yangi vazifalarni amalga oshirib bo‘lmaydi.

Yangi so‘zlarni rasmlar bilan solishtirish mashqlari

Bunday turdagи mashqlarda o‘quvchilar yangi so‘zlarni ma’nosini fahmlash orqali rasmlar bilan solishtirishadi. Ular solishtirishni tugatganlaridan so‘ng javoblarini Siz yoki o‘rtoqlari bilan yangi so‘zlar ma’nosini to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri fahmlaganini tekshirib ko‘rishlari kerak. Bu mashq o‘qituvchining yangi so‘zlar ma’nosini to‘g‘ridan-to‘g‘ri berishidek amaldagi uslubga qaraganda anchagina qiziqarlidir. U o‘quvchilarning bilish ko‘nikmalarini ham rivojlantirishga yordam beradi. M-n.: ingliz tilidagi so‘zni o‘zları bilgan boshqa bir til bilan taqqoslash va shu usul bilan ma’noni topa olish yoki topa olmasliklarini sinab ko‘rish orqali. Bir tildan boshqa bir tiIni o‘rganishda foydalanish xorijiy tilni o‘rganishda muhim ko‘nikma hisoblanadi. (O‘quvchilaringiz so‘zlar ma’nosini fahmlay olmasa yoki noto‘g‘ri fahmlasalar-da hech qanday muammo tug‘ilmaydi.


Zaruriyat tug‘ilganda so‘zlarning ma’nosini Sizning o‘zingiz aytasiz.)



Rasmlardan foydalanish

New Fly High 5 da barcha rasmlar til o‘rganish vazifasi sifatida xizmat qiladi.

Faqatgina bezak uchun rasmlar berilmadi. Rasmlardan ham o‘qituvchi ham o‘quvchi dars davomida faol foydalanishlari kerak. Rasmlardan noto‘g‘ri foydalanish yoki ularni nazardan chetda qoldirish o‘qitish va o‘rganishning samaradorligini pasaytiradi.



Tinglash va takrorlash mashqlari

Tinglash va takrorlash mashqlari ko‘pincha yangi so‘zlarni rasmlar bilan solishtirish mashqlaridan keyin yoki o‘quvchilar so‘z yoki so‘z birikmalarining ma’nosini bilib olgandan so‘ng bajariladi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, yangi so‘z yoki qurilmalarning ma’nosini bilmasdan turib ularni tinglab takrorlagandan ko‘ra, o‘quvchilar ma’noni bilganlaridan so‘ng ularni tinglab takrorlasa yaxshiroq esda saqlab qolishadi.

O‘qitishni boshlang’ich bosqichida uy topshiriqlarini o‘quvchilarga nima qilish kerakligi to‘g’risida biror shubha yoki tushunmovchilik paydo bo‘lmashligi uchun ona tilida berilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi deb o‘ylayman. Mashqlarni ifoda qilinii juda oddiy va bu topshiriq faqat yangi o‘rganilgan materialdan iborat bo‘lganda, ularni chet tilida berish mumkin. Boshlang’ich bosqichda darslikning bo‘lmashligi o‘qish sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchilarni ingliz tiliga o‘rgatish bilan bir qatorda yetakchi o‘rnini egallasa ham uning roli hamma vaqt bir xil bo‘lmaydi. Bu o‘qitishni maqsadiga va uning bosqichlariga bog’liq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Jalolov J “Chet tili o‘qitish metodikasi” Toshkent 1996 yil
- 2.Farberman B “Ilg’or pedagogik texnologiyalar” Toshkent 2000 yil



INGLIZ TILI DARSLARIDA TURLI METODLARDAN FOYDALANISH VA ULARNING AHAMIYATI

To‘xanova Muhabbat Rajabova

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani

15-umumiy o‘rta ta’lim maktabi

ingliz tili fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tili darslarida turli metodlardan foydalanish va ularning ahamiyati haqida to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Proektlab o‘qitish, Grammatik-tarjima metodi, Tushuntirish....

O‘qituvchining o‘quv faoliyatini tashkil qilish va boshqarishdagi o‘rgatuvchi faoliyati daryo jarayonida nutq, faoliyatining barcha turlari buyicha ko‘nikma va malakalar shakllantirishga yo‘naltirigan turli tuman metodlar, usullar, vositalardan foydalanish orqali amalgalashiriladi. Shunday ekan, o‘rgatish va o‘rganish metodlari, usullari va vositalari, tushunchalari haqida batafsilroq, to‘xtalishimizga to‘g’ri keladi.

Dastlab «metod» tushunchasi haqida. Metodik adabiyotlarda «o‘qitish metodlari» «ta’lim metodlari» deb yuritiladigan bu tushunchani «o‘rgatish metodlari» deb atash ma’qul tuyuladi. Chunki «ta’lim» butun o‘quv jarayonini ifodalaydagan tushunchadir. «O‘qitish» tushunchasi esa «o‘qishga o‘rgatish» degan ma’noni ham berada. Didaktikada metod deyilganda o‘qituvchining o‘quv dasturi asosida, ma’lum maqsadni ko‘zlagan holda o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini tashkil qilish va boshqarishga yo‘naltirigan faoliyati tushuniladi.. Chet tillar o‘rgatishning rivojlanish bosqichlarida turli metodlar qo‘llanilgan. Jumladan, quyidagi o‘rgatish metodlari haqida fikrlar bildirilganligini ko‘ramiz:

- | | |
|------------------------------|---------------------------|
| 1. Grammatik-tarjima metodi; | 2. Leksik-tarjima metodi; |
| 3. To‘g’ri metod; | 4. Pal’mer metodi; |
| 4. Uest metodi; | 5. Audio-lingval metod; |

Proektlab o‘qitish metodi. Bu metodlarning vujudga kelishiga, shubhasiz, pedagogika, psixologiya, shaxs psixologiyasi, lingvistika, psixolingvistika fanlarining rivojlanishi va ta’siri katta bo’ladi. Fikrimizcha, chet tilini o‘rgatish metodlari haqidagi bunday turli tumanlik metodist olimlar orasida hamon yagona fikr yo‘qligidandan dalolat beradi. Masalan, I. V. Rahmonov va M. V. Lyaxovitskiylarning fikricha chet tilini uchta umumiyyat metod orqali o‘rgatish

Mumkin deb ta’kidlashadi:

1. Namoyish qilish (demonstratsiya) metodi;
2. Tushuntirish metodi;
3. Mashq ishlatalish yoki amaliy ishlarni tashkil qilish metodi.





R. K. Min`yar-Beloruchev esa, bu uch metodni boshkacha atamalar orqali nomlashni taklif qiladi:

1. Tushuntirish metodi; 3. Ko`rsatish metodi; 3. Mustahkamlash metodi.

I. L. Bim esa, o`rgatish metodlarini tasniflar ekan ularni:

1. Ko`rsatish; 2. Tushuntirish; 3. Mashq bajartirish; 4. Malakalarni amalda qo'llash kabi turlarga bo'ladi.

YE. I. Passov, I. M. Maxmudovlarning asarlarida ularning soni yanada ko`paytirilada: 1. Tushuntirish metodi (retseptiv metod yoki kurgazmali tushuntirish metodi); 2. Reproduktiv metod; 3. Muammoli (problemali) o`qitish metodi; 3. Evristik suhbat metodi; 5. Ilmiy izlanish yoki ilmiy tadqiqod o`tkazish orqali o`rgatish metodi.

VOCABULARY
What's this in English?

1 Write the words.

a book	a camera	a car
a photograph	a computer	a bag
a hamburger	a television	
a sandwich	a house	

2 T 1.9 Listen and repeat the words.

3 T 1.10 Listen and repeat.

What's this in English?

It's a photograph.

GRAMMAR SPOT

It's = It is

Work with a partner. Point to a picture. Ask and answer questions.

4 Go to things in the room. Ask your teacher.

What's this in English?

10 Unit 1 • Hello!

Nazarimizda o`rgatish metodlariing bunday turli-tuman tasniflanishida o`rgatish metodlari, usullari, tamoyillari uzaro aralashtirilib yuborilgan.

Tushuntirish metodi. Tushuntirish metodi ta`lim jarayonida eng keng qo'llanadigan metodlardan biri hisoblanib, o`quvchi o`quv dasturida belgilangan fonetik, leksik, grammatik materialni og`zaki usulda o`quvchilarga taqdim qiladi.O`qituvchi xilma-xil ko`rgazmali qurollardan, ta`limning texnika vositalaridan foydalangan holda o`quv materialining mazmunini bayon qiladi, bu orqali o`quvchilarda dastlabki fonetik, leksik, grammatik ko`nikmalarni shakllantiradi va bu ko`nikmalarni amalda qo'llash yo'llarini ko`rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jalolov J “Chet tili o`qitish metodikasi” Toshkent 1996 yil
2. 3. Internet saytlari.



HINDIY TILIDA SIFAT DARAJALARI VA ULARNING IFODALANISH XUSUSIYATLARI
Ergasheva Malika Ulugbek kizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
<<Janubiy va Janubiy Sharqjan Osiyakafidalarini magistranti>> magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada hindiy tilidagi sifat soz turkumi darajalari va ularning ifodalanish xususiyatlaritahlil qilingan. Tilshunos olimlarning ilmiy asarlari va qarashlari asosida hindiy tilida sifat soz turkumi darajalari hamda ularning xususiyatlaritadqiq qilingan.

Уровни качества на хинди и их выразительные особенности

Эргашева Малика Улугбек қизи

Ташкентский Государственный Университет Востоковедения
Магистрант кафедры «Языков Южной и Юго-Восточной Азии».

Аннотация: В статье анализируются уровни прилагательных в хинди и их выразительные особенности. На основании научных трудов и взглядов лингвистов были изучены уровни прилагательных в хинди и их свойства.

Quality levels in Hindi and their expressive features

Ergasheva Malika Ulugbek kizi

Master of the department "Languages of South and Southeast Asia" at
Tashkent state University of Oriental studies

Abstract: This article analyzes the levels of adjectives in Hindi and their expressive features. Based on the scientific works and views of linguists, the levels of adjectives in Hindi and their characteristics have been studied.

Mazkur maqola Hind-Yevropa tillari oilasining hind-oriy tillari guruhiga oid hindiy tilidagi sifat darajalarining oziga xos xususiyatlarini ilmiy tadqiq etishga bagishlangan. Garchi hindiy tilining oziga xos xususiyatlari ilmiy jihatdan organib kelinayotgan bolsa-da, lekin hindiy tili grammatikasi sifat soz turkumi hamda sifat darajalarining oziga xos xususiyatlari ozbek hindshunosligida tadqiqot obyekti sifatida keng organilmagan.

Mazkur maqolani yozishda ko'plab ilmiy asarlar organildi. Asosan hind va rus tilshunos olimlaridan K.Guru, Z.M. Dimshits, O.G.Ultsiferov, V.P.Beskrovniy kabi olimlar sifat soz turkumini o'z ishlarida nazariy jihatdan tadqiq etganlar.

Hind tilida sifat darajalarini ko'rsatish ozining maxsus morfologik qoshimchalariga ega emas. Sifat darajalarini ko'rsatish asosan soz qoshish orqali amalga oshadi. Faqatgina



sanskrit va forschadan o'zlashgan sifatlarda istisno bo'lishi mumkin. Ular odatda maxsus suffikslar orqali sifat darajalarini ko'rsatib keladi.

Hindshunos olim Dimshits o'zining "Hind tillari grammatikasi" asarida sifat turkumining quyidagi darajalarini ko'rsatadi:

1. Qiyosiy daraja;
2. Kuchaytirma va ozaytirma daraja;
3. Orttirma daraja.

Qiyosiy daraja. Hindiy tilida sifatning qiyosiy darajasi, ya'ni bir predmetning xususiyat, sifat va alomatlari oz yoki ko'p miqdorda boshqa predmetning xuddi shunday xususiyat, sifat va alomatlari bilan farqlanish turli usullar bilan ifodalanadi:

1. Odatda sifatlarning qiyosiy darajasi sintaksis konstruksiya yordamida ifodalanadi, bunda qiyoslanayotgan predmet ot o'rnida qo'llanilib, gapda ega yoki boshqa gap bo'lagi vazifasida keladi, sifatning o'zi esa oddiy darajada kelib, gapda otlashgan kesim yoki aniqlovchi bo'lib xizmat qiladi. Qiyosiy darajani ifodalash uchun quyidagi konstruksiyalar ishlataladi:

a) ko'proq से ko'makchisi bilan: यह सेब शहद से मिठे है "bu olmalar asaldan ham shirinroq", मेरा भाई उस से बड़ा है "mening akam undan kattaroq", मुझे इस बात से अधिक खुशी एक दूसरी बात से हो रही है "meni bu narsa unga nisbatan ko'proq xursand qiladi";

b) में ko'makchisi "orasida,ichida" deb tarjima qilinadi: इन घरों में हमारा घर ऊँचा है "bizning uyimiz bu uylar ichida balandroq hisoblanadi";

d) में से qo'shma ko'makchisi orqali: इन तीन आदमियों में से वह छोटा है "bu 3 kishi orasida u yoshroqdir";

e) quyidagi murakkab qo'shma ko'makchilar orqali की अपेक्षा , की निस्बत , के बनिस्बत , के मुकाबले , की तुलना में ,के मुकाबले में "... bilan qiyoslanganda, nisbatan qiyoslaganda" deb tarjima qilinadi: संस्कृत की अपेक्षा हिंदी सरल है "Hindiy tili sanskritga nisbatan qiyoslaganda osonroqdir", गंधे की निस्बत घोड़ा मज़बूत है "ot eshakka nisbatan kuchliroqdir", भारत के गाँवों में हालत शहरों के बनिस्बत ख़राब है "Hindiston qishloqlaridagi holat shaharlarga nisbatan qiyoslaganda og'iroq", इसे मेरे मुकाबले इतना अच्छा कोई नहीं जानता "uni mendan ko'ra hech kim yaxshiroq bilmaydi" ;

f) के आगे , के सामने kabi murakkab ko'makchilar orqali: वह मेरे आगे छोटा है "mening oldimda u kichikdir" , स्त्री पुरुष के सामने कमज़ोर होती है "ayol kishi erkak kishi oldida kuchsizroqdir" .



2. Shuningdek, hindiy tilida сे ko'makchisi бўлна "kattalashtirish" va ғарна "qisqarish, tushish" so'zlari се бўлкар va се ғаркар kabi ravishdoshlar bo'lib ham ishlatilishi mumkin. се бўлкар va се ғаркар birikmalari sifatsiz qo'llanilganda, u yoki bu predmetning alohida xususiyatlarini aks ettirmagan holda qiyoslash uchun ishlatiladi, masalan: вह तुम से बढ़कर है "u sendan ustunroq", "u sendan yaxshiroq", हम तुम से घटकर है "biz sendan orqadamiz", "biz sendan yomonroqmiz", दर्शक की प्रशंसा से बढ़कर कलाकार के लिये कोई चीज़ नहीं है "rassom uchun tomoshabinlar e'tiboridan ortiqroq hech narsa yo'q".

Aniq sifat va xususiyatni aks ettirish uchun qo'llaniladigan се бўлкар va се ғаркар qiyoslash birikmalari bilan ishlatilganda postpozitiv sifat yoki "мे" ko'makchisi bilan ishlatiladigan prepozitiv ot bo'lib, unda qiyoslanayotgan predmetning alomatlari taqqoslanadi, masalan: वह तुम से बढ़कर बलवान है "u sendan ko'ra kuchliroq", हम तुम से घटकर बलवान है "biz sendan ko'ra kuchsizroqmiz", मैं तुम्हारे लिए अपने से बढ़कर धनी, सुन्दर और भला वर ढूँढ़ दूँगा वह बल में तुम से घटकर है "men senga boyroq, chiroyliroq va aqlliyoq qaylig' topib beraman".

3. Sifatning qiyosiy darajasi ,shuningdek, sanskrit tilidan olingan sifatlarga "-тар" qo'shimchasini qo'shish bilan ham yasaladi: ऊच्चातर "balandroq" - ऊच्चा "baland", हीनतर "yomonroq, undan battarоq" - हीन "yomon" , घोरतर "qo'rqinchliroq" - घोर "qo'rqinchli" , कोमलतर "mayin, yumshoqroq" - कोमल "yumshoq" va boshqalar.

4. Sifatning qiyosiy darajasi morfologik jihatdan"-тар" qo'shimchasini kelib chiqishi arab va fors tilidan olingan sifatlarga qo'shish yo'li bilan ham yasaladi, ज्यादातर "ko'proq, kattaroq" - ज्यादा "ko'p, katta" , मज्जबूततर "qattiqroq, kuchliroq" - मज्जबूत "kuchli, katta" , मुश्किलतर "qiyinroq" - मुश्किल "qiyin" , सफेदतर "oqroq" - सफेद "oq" va boshqalar.

Orttirma daraja. Sifatning orttirma darajasi , ya'ni predmetning xususiyat, sifat yoki alomatlari ko'proq yoki kamroq darajada boshqa predmetlarning xuddi shunday xususiyat, sifat yoki alomatlari bilan qiyoslanish quyidagicha aks etadi:

1. सब "hamma" olmoshining се ko'makchisi bilan birikmasida (kamdan kam hollarda मे ko'makchisi bilan ham) va oddiy darajadagi sifat bilan ishlatilishidan, masalan : हमारे नगर में यह सब से लम्बी सड़क है "bizning shahrimizda bu eng uzun ko'cha hisoblanadi" , यह घर सब में अच्छा है "bu eng yaxshi uy" ;

2.Bir xil predmetlari yig'indisini anglatuvchi मे, से, मे से birikmalari bilan. Bunda predmetlar ichida bittasi maksimal yoki minimal darajada boshqalaridan xususiyati, sifati yoki



alomati bilan ajralib turishi nazarda tutiladi, ya'ni bunda bir turdag'i predmetlar yig'indisi саб "hamma" olmoshi va bosh kelishikda ko'plikdagi ot bilan ifodalanadi, sifat esa oddiy darajada fe'lning oldida bo'ladi, masalan: वह सब लड़कों में अच्छा है "u eng yaxshi bola" , यह मेज़ सब मेज़ों से छोटी है "bu eng kichkina stol" , यह घर सब घरों में से बड़ा है "bu uy eng katta uydır" ;

3. Sifatning сे ko'makchisi bilan takrorlanishidan, masalan: बड़े से बड़ा घर "eng katta uy" , अच्छी से अच्छी पुस्तक "eng yaxshi kitob" , उस ने अच्छे से अच्छे खाने खाये थे, बढ़ियाँ से बढ़ियाँ कपड़े पहने थे "u eng sara ovqatlarni yerdı, eng sara kiyimlarni kiyar edi" ;

4. “—тас” qo'shimchasini sanskrit tilidan olingan sifatlarga qo'shib ishlatishdan, masalan: ऊँचातम “eng yuqori, eng baland”, ऊँचा “yuqori, baland”, घोरतम “eng qo'rqinchli”, घोर “qo'rqinchli”, कोमलतम “eng nozik कोमल “nozik”;

5. सर्वा “barcha, hamma” so'zini sanskrit tilidan kelib chiqqan sifatlarga qo'shish yo'li bilan, masalan: सर्वा-प्रधान “eng muhim” - प्रधान “muhim” , सर्वा- प्रसिद्धता “eng mashhur” - प्रसिद्धता “mashhur” , सर्वाधुनिक “eng zamonaviy” - आधुनिक “zamonaviy”;

6. “—तरीन” qo'shimchasini arab va fors tilidan kelib chiqqan sifatlarga qo'shish yo'li bilan, masalan: मज्जबूत्तरीन “eng mustahkam” - मज्जबूत “mustahkam” , सफेदतरीन “eng oqroq” - सफेद “oq”.

Predmetlar nafaqat oz yoki ko'p darajada ularning sifat va xususiyatlarini aks ettiruvchi sifatlari bilan, balki bir xil darajadagi predmetlarga xos bo'lgan sifat va xususiyatlari bilan ham taqqoslanishi mumkin. Predmetlardagi bir xil xususiyat va alomatlar qiyoslanishi की तरह, की भाँति , के समान “kabi” ko'makchilari bilan, जैसा “-deк” olmoshi bilan amalga oshiriladi, masalan: हमारी दोस्ती फौलाद की तरह मज्जबूत है “Bizning do'stligimiz po'latdek mustahkam”, भारत जैसा बड़ा देश “Hindiston kabi katta mamlakat” , तुझ सा कमज़ोर लड़का “sendek kuchsiz bola”.

Kuchaytirma va ozaytirma daraja. Hindiy tilida sifatning kuchaytirma va ozaytirma darajasi leksik usul bilan xususiyat sifatlariga quyidagi so'zlarni qo'shish orqali yasaladi: अधिक "ko'proq" , ज्यादा "ko'p, oshiqroq" , कहीं "nisbatan ko'proq" , कम "kam" , बहुत "juda" , अत्यंत "juda" , थोड़ा "ozgina" , ज़रा "kamroq" , कुछ "bir qancha" , बड़ा "juda" , काफ़ी "yetarlicha" , निहायत "nihoyatda" , बिल्कुल "butkul" va boshqalar. वह छत इस से अधिक चौड़ी और खुली है "Bu tom unisiga nisbatan kengroq va ochiqroq", देशी माल की अपेक्षा विदेशी माल ज्यादा महँगा पड़ा "Chet el mollari mahalliy mollarga nisbatan qimmatroq ekan" , कहते हैं कि एक समय में यह पथार बहुत ही



ऊँचा था "Aytishlaricha , bir paytlar bu tog' tekisligi juda baland bo'lgan" , भारत में मेरथ ठंडी जगह है, शिमला और ठंडा है "Hindistondagi Merath sovuq makon, Simla esa undan ham sovuqroq".

Sifatning kuchaytirma darajasi xususiyat sifatlariga сар্঵াধिक "ko'proq, nisbatan, kattaroq" so'zini va सबसे birikmasini qo'shib ham yasaladi: сар्वाधिकउपयुक्त"nisbatan mosroq" , सबसेमहत्वपूर्ण "eng muhim".

"Hindiy tilida sifat darajalari va ularning ifodalanish xususiyatlari" nomli maqola yozilishi natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

- ✓ Sifat so'z turkumi bir qator o'zbek, rus, hind va boshqa chet el olimlari tomonidan tadqiq etilgan. Ular sifat so'z turkumi , uning struktur tahlili, etimologiyasi, ma'no xu'usiyatlari jihatdan semantik tahlili, sifat darajalari va uning bir qator xususiyatlarini o'rganishgan;
- ✓ Xususan, rus olimlaridan Z.M.Dimshets, A.N.Kononov kabi olimlar; hind olimlaridan esa .ब्रजकिशोर प्रसाद सिंह, K.Guru, Usha R.Jain kabi bir qator olimlar sifat so'z turkumini tahlil qilishga o'z hissasini qo'shishgan;
- ✓ Sifat so'z turkumi struktur jihatdan tahlil etilganda uning darajalari o'rganilib chiqildi.
- ✓ Hindiy tilida ham xuddi o'zbek tili kabi sifat darajalari mavjud bo'lib, ular quyidagicha tasniflanadi:

Hindiy tilida esa quyidagicha bo'linadi:

1. Qiyosiy daraja
2. Orttirma daraja
3. Kuchaytirma va ozaytirma daraja

Xulosa o'mida ayta olamizki, hindiy tili grammatikasi tizimida “Sifat” mavzusi yetarlicha ahamiyatga ega va bu borada ko'plab ishlar amalga oshirilgan. Ammo, ba'zi bahsli o'rinalar borki, biroz tuzatish va qo'shimchalar kiritishga muhtoj. Chunonchi, mazkur mavzuga qo'l urishimizdan maqsad ham bu boradagi mavjud kamchiliklarga barham berish, bahsli masalalarga yechim topishga kirishish, mavzu doirasidagi tushunmovchiliklarni bartaraf etish kabi mas'uliyatli ishga kichik bo'lsada hissamizni qo'shish va kelgusi avlod vakillariga bugungi mavjud ma'lumotlarga qo'shimcha yanada aniq va to'liq tarkibdagi ma'lumotlarni qoldirishdan iboratdir.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Камтапрасад Гуру "Грамматика Хинди" часть I .-издательство иностранный литературы.-Москва1962
 2. З.М.Дымшиц "Грамматика языка Хинди" часть I .-издательство "Наука", главная редакция восточной литературы.-Москва1986
 3. З.М.Дымшиц "Грамматика языка Хинди" часть II .-издательство "Наука", главная редакция восточной литературы.-Москва1986
 4. Shomatov O.N. Hindiy tilining me'yoriy grammatikasi. –T.: ToshDSHI, 2010.
 5. Sh. Shoabdurahmonovvaboshqalar "Hozirgio'zbekadabiytili". - Toshkent . 1980 yil.
- O'qituvchinashriyoti
6. डॉ. ब्रजकिशोरप्रसादसिंह "हिंदीव्याकरण", रमेशपब्लिशिंगहाउस, नईदिल्ली2009
 7. Usha R. Jain "Introduction to Hindi grammar".-Centers for South and Southeast Asia Studies, University of California, 1995



TILSHUNOSLIKDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLER VA TERMINLARNING IFODALANISHIDAGI MUAMMOLI VAZIYATLAR

Xakimbayeva O.K.

O'zbekiston davlat jahon
tillari universiteti. O'qituvchi

Abduqodirova M.N.

O'zbekiston davlat jahon
tillari universiteti. Talaba

Tel: (998 998041457)

E-mail: muslimaxon2003@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada lingvistikadagi frazeologik birliklar va terminalogiyadagi ayrim muammolar haqida so'z borgan. Ingliz va o'zbek tillaridagi atamalar va terminlarning bugungi kundagi ahamiyati haqida so'z yuritilgan. Frazeologik birliklarning tilshunoslikda tutgan o'rni va ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: frazeologiya, termin, frazeologik birlik, frazeologik chatishma, frazeologik birlashma, ilmiy termin, kasbiy termin, frazeologik qo'shilma.

Ijtimoiy sohada terminologiya va frazeologik birliklarni standartlarga muvofiqlashtirishning yo'qligi tabiiy fanlar va texnologik fanlardan farqli o'laroq, qator sohalarda yangi atamalarning paydo bo'lismiga olib keldi. Lingvistikada kundan-kunga terminologiya sohasining rivojlanib borishi keng hajmli imkoniyatlarni ochilishiga sabab bo'lmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, eng avvalo terminalogiya va frazeologiya aslida nima ekanligini bilib olish zarurdir. Terminologiya - bu ma'lum bir sohaga oid maxsus so'zlar yoki ma'nolar guruhi, shuningdek, bunday atamalar va ulardan foydalanishni o'rganish uchun umumiylashtirishga ega bo'lgan oddiy so'zlar va qo'shma so'zlar yoki ko'p so'zli aynan muayyan matnda o'ziga xos ma'noga ega bo'lgan iboralar bo'lib, ba'zan matn ma'nosidan kelib chiqqan holda o'zgarishi mumkin. Terminologiya, boshqa shu kabi fanlar qatori, atamalarning rivojlanishini va ularning ixtisoslashgan sohadagi o'zaro bog'liqligini o'rganadigan fandir. Terminologiya leksikografiyadan asosiy farqi shundaki, u tushunchalar, kontseptual tizimlar va ularning belgilarini (terminlarini) o'rganishni o'z ichiga oladi, leksikografiya esa so'zlar va ularning ma'nolarini o'rganadi. Frazeologiya esa tildagi qotib qolgan birliklarni o'rganganligi sababli uni terminologiya bilan adashtirmaslik zarur.

Terminologiya sohasini quyidagi ikki asosiy qismlarga ajralganini ko'rishimiz mumkin:

- Bitta atama yoki cheklangan miqdordagi atamalarning ishlatalishi, sohalardagi qo'llanilishiga oid izlanishlar;
- Terminologianing tizimli to'plami, u muayyan predmet yoki faoliyat sohasidagi barcha atamalar bilan shug'ullanadi, ko'pincha ushbu soha doirasidagi atamalarning tuzilgan ontologiyasini va ularning o'zaro bog'liqligini yaratish;

Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, tarjimonlik kabi sohalarda maxsus terminologiya keng tarqalgan bo'lib, u yerda ma'lum bir tarjima muammosini hal qilish uchun ma'lum bir atama (yoki atamalar guruhi) uchun tarjima terminlarini to'g'ri qo'llay olish talab qilinadi.

Terminologiya fanning asosiy mohiyatidan biri shuki, u tilshunoslikning maxsus lug'atni o'rganadigan soha ham hisoblanadi. Terminologik tadqiqotlarning asosiy obyektlari maxsus leksik birliklar (yoki maxsus leksemalar), eng avvalo, terminlardir. Ularning kelib chiqishi, rasmiy tuzilishi, ma'nosи hamda funksional xususiyatlari nuqtai nazaridan tahlil qilinishi ham ayni sohaga taaluqlidir. Tushunchalarni ifodalash uchun atamalar ishlataladi, shuning uchun terminologiya fani tushunchalarni shakllantirish va rivojlantirish, shuningdek, tushunchalar o'rtasidagi mavjud munosabatlarni olib berish va ularni tasniflash tamoyillari bilan ham shug'ullanadi. Shu o'rinda esa lingvistika haqida ham qisqacha ma'lumot qo'yish joizdir.

Lingvistika ya'ni Tilshunoslik til haqidagi ilmiy fan bo'lib, tilni har tomonlama, tizimli, obyektiv va aniq o'rganadi. Tilshunoslik tilning har bir jihatini tahlil qilish bilan bir qatorda ularni o'rganish va modellashtirish usullarini ham o'z ichiga oladi. Tilshunoslik tahlilining an'anaviy sohalariga har biri taxminan inson til tizimlarida uchraydigan hodisalarga mos keluvchi tovushlar



(va ishora, imo-ishora tillarida), minimal birliklar (fonemalar, so'zlar, morfemalar), iboralar va jumlalar, ma'no va foydalanish uslublarini o'rganuchi fonetika, fonologiya, morfologiya, sintaksis, semantika va pragmatika kabilardan iboratdir. Tilshunoslik bu hodisalarni turli yo'llar bilan va turli nuqtai nazardan o'rganadi. Nazariy tilshunoslik (jumladan, an'anaviy tavsify tilshunoslik) bu tizimlar, ularning qismlari (ontologiyalari) va kombinatorikalarining modellarini yaratish bilan shug'ullanadi. Psixolingvistika bu hodisalarning barchasini qayta ishlash va ishlab chiqarish nazariyalarini quradi, Ushbu hodisalar sinxron yoki diaxronik (tarix orqali), bir tilli yoki poliglotlarda, bolalar yoki kattalarda, ular olingan yoki statik ravishda, mavhum obyektlar yoki kognitiv tuzilmalar sifatida, matnlar yordamida yoki eksperimental ravishda o'rganilishi mumkin.

Tilshunoslikning aynan shu sohalaridagi kundan kunga rivojlanishlar sohaga oid terminalogiyadagi ba'zi muammolarni kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Tilshunoslikda kashf etilayotgan ma'lumotlar, sohaga kirib kelayotgan o'zgarishlar lingvistika doirasida ishlatilayotgan termin frazeologik birliklar va tushunchalarning qo'llanilishi, o'z ma'no-mazmuni hamda uslublariga ma'lum darajada o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Shuning natijasida, sohadagi terminlarva frazeologik birliklar o'z qo'llanish uslubini o'zgartirishiga yoxud umumiy olganda sohadan chiqib ketishiga sababchi bo'lmoqda. Bu esa o'z navbatida terminalogiya va frazeologiyadagi ayrim muammolarni keltirib chiqaradi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdullayev A. Frazeologizmlarning ekspressivlik xususiyti. – T. O'TA. 1976. 5-son.
2. Abdullayev A. O'zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. – T.Fan. 1983.
3. Амосова Н. Н. Основы английской фразеологии. – М. 1963.-С.46-49.
4. Ахманова А. С. Словарь лингвистических терминов. – М.: СЭ.1966.-С.17



O’ZBEK TILIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING TUTGAN O’RNI

Xakimbayeva O.K.

O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti. O’qituvchi

Karimova M.L.

O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti. Talaba

Tel: (998 99 040 28 48)

E-mail: karimovamohi5@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o’zbek tilidagi frazeologik birliklarning tutgan o’rni va ahamiyati haqida so’z yuritilgan. Bugungi kunda zamonaiviy tilshunoslikda frazeologik birliklarning ifodalaniши va vazifalari haqida fikr yuritilgan. Frazeologizmlar va frazeologik birliklarga ta’rif berilib ularning qanday holatlarda tilde qo’llanish usullari haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so’zlar: frazeologiya, frazeologik birlik, frazeologik chatishma, frazeologik birlashma, ilmiy frazeologizmlar, kasbiy frazeologizmlar, frazeologik qo’shilma.

Til fanining iboralarni o’rganadigan bo’limi frazeologiya deb ataladi. Iboralar lingvistik terminologiya tili bilan aytsak, frazeologizmlardir. Frazeologizm qadimgi grek tilidan olingen bo’lib, frasis-ibora, logos-tushuncha, ta’limot demakdir. O’zbek tilining frazeologizmlari ham besh jildlik “O’zbek tilining izohli lug’ati” da (2006-2008) va bir jildlik “O’zbekcha-ruscha lug’at” da (1988) birmuncha to’laroq aks etgan bo’lsa-da, bu lug’atlarda ham o’zbek tilidagi barcha iboralar qamrab olingen, deb bo’lmaydi. XIX asrda yashagan turkiyshunos olim Mirza Kozimbek (1802-1870) o’sha davr an’analaridan kelib chiqib, rus tilida yozilgan boshqa tasviriy grammaticalarda bo’lgani singari o’z asarida “fraza” so’zini jumla, gap ma’nosida qo’llagan.

Ozarbayjon tilshunoslari B.Cho’ponzoda va F.Og’azoda “Turk tili grammatikasi” asarida til bo’limlari haqida fikr yuritib, “Semasiologiya”, “Stilistika” atamalari bilan birga o’sha davrda tilshunoslikda keng qo’llanilishda bo’lgan “Idiomatizm” atamasini ishlatgan. Mualliflar bu asarda turk tilidagi idiomalarga oid “boshga solmoq”, “boshga tushmoq”, “ko’z ko’rmoq” kabi birliklarni misol sifatida keltiradilar. Umuman, frazeologiya turkiyshunoslikda nisbatan keyin paydo bo’lgan. Uni sistemali ravishda o’rganish faqat o’tgan asrning 40-50-yillariga kelib boshlandi.

Shundan keyingi 30-40 yil mobaynida turkiy tillardagi frazemalarni intensiv o’rganish bo’yicha muhim yutuqlar qo’lga kiritildi. Bu davrda S.N.Muratovning “Turkiy tillarda turg’un so’z birikmalari”, Sh.U.Rahmatullayevning “O’zbek frazeologiyasining ayrim masalalari” (1966) kabi ishlari yaratildi. Rus tilshunosligida bo’lgani singari turkiyshunoslikda ham frazeologiya doirasini tor va keng ma’noda tushunish hamon davom etib kelmoqda. Frazeologiya obyektini tor ma’noda tushunishning faol tarafdoxlardan biri, yirik turkiyshunos A.A.Yo’ldoshev edi. U frazeologiya obyekti tor doirada tushunilsa, “Frazeologiyaning o’rganish doirasi aniqroq namoyon bo’ladi, undan haqli ravishda bo’linmas leksik birliklar, jumladan maqol, matal, hikmatli so’z va aforizmlar chiqib ketadi, chunki ular struktura jihatdan yaxlit holda qo’llanuvchi sintaktik birliklardir”, - degan fikrni olg’a suradi.

O’zbek tilining frazeologik boyligini o’rganishga bag’ishlangan mukammal tadqiqotlarga egamiz. Adabiy til lug’at tarkibining taraqqiyoti va boyishi xalq shevalari bilan uзвиyy va chambarchas bog’liqidir. Adabiy til normalarini belgilashda xalq shevalarining leksik, fonetik va grammatik xususiyatlariga suyanadi va ma’lum o’ziga xos qonuniyatlar bilan rivojlanadi. Shunday ekan milliy tilning xalq shevalaridagi ko’chma ma’noli iboralarini o’rganish ham hozirgi o’zbek adabiy tili taraqqiyotining, uning boyib borish yo’llarini belgilovchi omillardan biri bo’ladi.

Inson nutqi albatta turli tuman so’zlarga boydir. Kundalik turmushimizda ishlatiladigan maqollar, frazeologizmlar ya’ni iboralar og’zaki nutqda ham, badiiy adabiyotda ham keng tarqalgan. Frazeologizmlar ikki yoki undan ortiq so’zdan tashkil topgan bo’lsada , so’zlar singari odatda yaxlit bir tushunchani ifodalash uchun xizmat qiladi. Frazeologizmlar (iboralar) ham o’z navbatida 2 turga bo’linadi: turg’un ibora hamda frazeologik ibora.

Turg’un ibora - bevosita nutq jarayonida hosil bo’lmaydigan, tilda bir butun holda mavjud bo’lib, shundayligicha nutqqa kiritiladigan so’z birikmasi yoki gapga teng jumla. Frazeologik ibora-turg’un iboralarning ko’chma ma’noli, obraxli turi. Frazeologik iboralar o’z ma’nodoshlari bo’lmish so’zlarga nisbatan ma’noni kuchli darajada ifodaydi hamda ularda obraxlilikni yorqin aks ettiradi. Iboralarga bir nechta misollar keltirsak



- Boshi osmonga yetdi - xursand bo’ldi ;
- Bir boshga bir o’lim- nima bo’lsa bo’ldi ;
- Ko’p gap eshshakka yuk - keraksiz gaplarni gapirish;
- Ignani ustida o’trish - juda xavotirda bo’lish
- Orqasidan kun ko’rmoq- birovni xisobiga yashash
- Chuchvarani xom sanabsan - xom hayol qilib yuribsan ,

Albatta nutqimizda yoki asarlarda iboralarning qo’llanilishi nutqni ta’sirchanligini va jimjimadorligini oshiradi. Ammo asalning ham o’gzi shirin deganlaridek nutqimizda tinimsiz iboralarning qo’llanilishi nutqdagi g’alizlikka olib keladi. Mustaqil lingvistik fan sifatida frazeologiyaning vazifasi muayyan tilning frazeologik asarlarini har tomonlama o’z ichiga oladi. Ushbu fanni o’rganishning muhim jihatlari quyidagilardir: frazeologik birliklarning semantik tuzilishi, ularning kelib chiqishi. Ammo frazeologik birliklarni tildan tilga tarjima qilish o’ziga yarasha mashaqatni va tajribani talab etadi. Tarjimada oz bo’lsada xatolikka yo’l qo’yilsa, iboraning ma’no mohiyati o’zgarib ketishi ehtimoldan xoli emas .

Foydanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Berdiyorov H., Rasulov R., Yo’ldoshev B. O’zbek frazeologiyasidan materiallar. I,II,III qismlar. – Samarqand, 1976, 1979, 1983.
2. Doniyorov X., Yo’ldoshev B. Adabiy til va badiiy stil. – Toshkent: Fan, 1988.
3. Yo’ldoshev B. Frazeologiya tarixidan lavhalar. – Samarqand, Sug’diyona, 1998.
4. Yo’ldoshev B. O’zbek tilida frazeologizmlarning uslubiy va pragmatik imkoniyatlari. – Samarqand, 2002.



TIL O'RGATISHDAGI ZAMONAVIY METODLARNING BUGUNGI KUNGA BOG'LIQLIGI VA TA'SIRI

Xakimbayeva O.K.
O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti. O'qituvchi
Mamatova N.M.
O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti. Talaba
Tel: (998 93 9881501)
E-mail: nozi.mamatova2001@gmail.com

Annotatsiya: Hozirgi kunda muloqot va chet tillari bir necha yil oldingiga qaraganda ko'proq ahamiyatga ega b'lib boryapti. Til asoslarini o'rgatish uchun an'anaviy usuldan boshqa yo'l yo'q bo'lsada, bu yondashuvlar talabalarni qiziqtirishi uchun ancha o'zgartirilishi kerak. Til haqida asosiy tushunchalarga ega bo'lgan talabalar uchun an'anaviy usullar odatda zamonaviy va innovatsion usullarga qaraganda yomonroq natijalar beradi. Zamonaviy usullar o'quvchilarga tilni yaxshiroq o'zlashtirishga yordam beradi va bu ularning qiziqishlarini saqlab qoladi. Ushbu maqola tilni o'rgatishda foydali yondashuvlar va usullarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar: grammatik tarjima, to'gridan-to'gri yondashuv, kognitiv usul, audio lingual, kommunikativ usul, eklektik, innovatsion yondashuv.

Hozirgi globallashib borayotgan zamonda turli millatlar orasidagi muloqot judayam muhimdir. Muloqotlarni turli xil usullarda amalga oshirish mumkin. Bugun, biz yashab turgan davrda, til o'rganmoq boshqa millatni hayot tarzi va rivojlanishini o'rganishning eng muhim kalitidir. O'qish, yozish, gapirish, o'yash, muammolarni hal qilish va yaratish kabi jarayonlar til bilan sodir bo'ladi. Tilning aloqa qilish, fikrlarni ifodalash, madaniy muloqot qilish kabi faoliyatlarda ham o'rni beqiyos. Insonning qobilyatlarini rivojlantirish, qiyin muammolarni hal qilish, ilmiy fikrlash va dunyoqarashni kengaytirish til orqali olib boriladi. Bu holat bizga til o'rganish qobilyatlarimizni rivojlantirishimiz kerakligini va mакtabda oлган bilimlar bilan chegaralanib qolmasligimizni anglatadi. Juda ko'p davlatlar til o'rganishning yangi usullarini ishlab chiqib, judayam katta imkoniyatlar beryapti. Asrlar davomida, insonlar maktab davridan xorijiy tillarni o'rganishning boshlang'ich ta'limini olib kelishyapti. Kundan kun til o'rganishning psixologiyasi va nazariyalardagi rivojlanishlar sababli yangi til o'rgatish uslublari ishlab chiqilyapti. Til o'rgatish qiziqrarli jarayon hisoblanib, o'qitish usullari bo'yicha munozaralar so'nggi yuz yil davomida keng tarqagan.

Grammatik tarjima qilish metodi, to'g'ridan-to'gri metod, audiol-lingual metod va kommunikativ o'qitish kabi usullar mavjud bo'lib, ularni amaliyotda tushunish qiyin. Chunki, u tushuncha qancha xato ta'riflangan bo'lmasin, u strategiya yoki texnikani o'z ichiga oladi. Bundan oldingi davrlarda til o'qitish metodikasi, ikki turdag'i tushunchalar o'rtasida o'zgarishlar mavjud edi: bir turdag'i yondashuvlar tildan foydalanishga ya'ni gapirish va tushunishga, ikkinchi turdagisi tahlil qilishga ya'ni grammatik qoidalarni o'rgatishga qaratilgan. Klassik yunon va o'rtta asrning lotin davrlari chet tillarni o'qitish bo'yicha farqli jihatlarga ega.

Til o'qitishning turli usullari metodning diqqat markaziga ta'sir qiladi, ya'ni natijaga erishish uchun bo'lgan maqsad aniqlanadi. Bunday maqsadlarning aniqlanishi yondashuvning emas balki dizaynning mahsulidir. Ayrim usullarda birinchi, o'gzaki nutq qobilyatlariga qaratilgan so'ng, o'qish, yozish qobilyatlari ikkinchi darajada bo'ladi. Ba'zilari esa umumiy muloqot qobilyatlarini o'rgatish uchun mo'ljallangan bo'lib, grammatik aniqlik hamda mukammal talaffuzdan ko'ra mazmunli ifodalinish va anglash qobilyatiga ko'proq ustunlik beradi. Boshqalar esa boshidan oq to'gri grammatika va talaffuzga e'tibor berishadi. Ayrim usullar tilning grammatikasini va lug'atini o'rgatish uchun mo'ljallangan. Gattegno shunday degan "O'rganish bu bilimlarni to'plash sifatida emas, balki biror faoliyat bilan shug'ullanishda yanada malakali o'quvchi bo'lish vositasida qaraladi. Ushbu jarayonga yo'naltirilgan maqsad, an'anaviy usullarning lingvistik yo'naltirilgan yoki ma'lum bir o'qitish usuliga yo'naltirilgan maqsadlardan farq qilishi mumkin. Usulubning jarayonga yoki usulga yo'naltirilgan maqsadlarga ega bo'lish darajasi uning so'z boyligini o'zlashtirish yoki grammatik malakaga qanchalik katta e'tibor berilganligi bilan aniqlanishi



mumkin.

Asosan jarayonga yo'naltirilgan deb hisoblanadigan ayrim usullar gramma tik va leksik ma'nolarga ega bo'lib, aniq gramma tika va talaffuz bilan bog'liq muammolarni ko'rsatadi.

Til o'qitishdagi oldingi qilingan xatolar va ularni bartaraf etish yo'llari takomillashtirildi. Ko''plab tadqiqotlar tillarni o'qitishga hissa qo'shdi. Quyidagi berilgan usullar Zamonaviy Yevropa Kengashi tomonidan qabul qilingan va keng qo'llanilayotgan usullardir. Bular: Gramma tika tarjima usuli, to'gridan-to'gri usul, audio lingual usul, kognitiv kod usuli, kommunikativ usul va eklektik usullardir.

Grammatik-tarjima usuli asosan tildan tilga tarjima qilish orqali amalga oshiriladi. Grammatik qoidalari yodlanishi va yoddan o'rganilgan so'zlarning uzun ro'yhatlarini o'z ichiga oladi. Bu usulda og'zaki nutq qobiliyatini rivojlantirishga e'tibor berilmaydi.

To'g'ridan-to'g'ri usulda o'qitish to'liq maqsadli tilda olib boriladi. O'quvchiga o'zining ona tilisida gapirishga ruxsat berilmaydi. Grammatik qoidalarga emas, balki ravon talaffuzga e'tibor qaratadi.

Audio-lingual usulning nazariyasi shundan iboratki, tilning o'rganish odatlariga ega bo'lishni anglatadi. O'rganilayotgan tilda biror narsa(matn kabi) bir marta eshitiladi va yozma shaklda ko'rishdan oldin chuqur o'rganiladi.

Til o'rgatishning kognitiv usuli takrorlashni o'z ichiga oladi. Yangi tilni tashkil qilish, ma'noni umumlashtirish, konteksdan ma'noni tahmin qilish, yodlash uchun tasvirdan foydalanish kabi o'rganishlarni yaxshilash uchun manipulatsiya qilishni o'z ichiga oladi.

Kommunikativ usul esa o'quvchiga o'zi duch kelishi mumkin bo'lgan turli vaziyatlarda samarali va to'g'ri muloqot qilish imkonini beradi

So'nggisi o'rgatishning eklektik metod usuli bo'lib bunda til o'rgatishning turli yondashuv va usullari o'zida mujassamlashtirilgan holda o'qitish maqsadlari va o'quvchining qobiliyatlariga bog'liq bo'ladi. Bu usul "aralash" usullari sifatida ham tanilgan.

O'quvchilar dars davomida faqat chet tilida so'zlashishlari va tushunmagan so'zlarni tarjimasi o'qituvchi tomonidan darrov aytimasligi, balki ularni mimikalar orqali amalga oshirishlari kerak bo'ladi.

O'quvchilar kichik guruhlarga bo'linishi, va ular quyidagi usullardan foydalanishlari ya'ni "Munozalar qilish, o'z fikrini aytish, hamda birgalikda jamoa bilan ishslash" kabi usullardan foydalanishlari kerak.

O'quvchilarga erkin fikrlash va fikr bildirish imkoniyatini yaratish, ularning xatolari bir zumda tuzatilmasdan birgalikda muhokama qilinishi kerak bo'ladi.

Ushbu yondashuvlarning barchasida e'tirof etish kerak bo'lgan eng kuchli narsa shundaki, ular o'quvchini ham, o'qituvchini ham jalb qilishga qaratilgan. O'qituvchilarga o'zlarining aqli mutaxassislari kabi munosabatda bo'lishsa va o'qitishda ular ko'pincha bog'langan tarixiy modellardan tashqariga chiqadigan yondashuvlar bilan ham shug'ullanilsa, talabalar boshqacha o'rganishga yaxshi munosabatda bo'lishadi va ta'lim yaxshilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Jack C. Richards, Theodore S.Rodgers. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press. 1999. 14,20-22 b
2. Burcu Okmen, Abdurrahman Kiliç. A Research about the Level of Using Language Teaching Methods and its effect on some Variables:in Turkey. Universal Journal of Educational Research 1994-2001. 2016. 1-2b <http://www.hrupub.org>
3. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o'zbek adabiy tilini o'qitish qoidalari. Darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2003.



INGLIZ VA O’ZBEK TILLARIDA SIFAT KATEGORIYASINING IFODALANISHI

Xakimbayeva O.K.

O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti. O’qituvchi

Maxmasoatova M.B.

O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti. Talaba

Tel: (998976385545)

E-mail: marjonamarjona694@gmail.com

Annotatsiya. Biz sifat leksemalaridan hayotimizda keng ko’lamda foydalanamiz. Ushbu maqolada ingliz va o’zbek tillarida sifat kategoriyalarining ifodalanishi, xususan, sifat haqida tushuncha, sifatning turlari, sifat darajalari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Ingliz va o’zbek tillaridagi sifat kategoriyasidagi bir nechta muommoli vaziyatlar haqida ish olib borilgan. Mavzu xususida yozuvchi va olimlarning sifat termini haqida keltirgan fikrlari bilan mavzu misollar orqali boyitib borilgan.

Kalit so’zlar: Sifat kategoriyasi, sifat turlari, xususiyat sifatlari, rang-tus sifatlari, maza-ta’m sifatlari, hajm-o’lchov sifatlari, hid sifatlari, makon va zamon sifatlari, sifat darajalari, oddiy daraja, qiyosiy daraja, orttirma daraja, ozaytirma daraja.

Sifat atamasi to’g’risida ilk ilmiy tadqiqot 40-yillarning 2-yarmida vujudga kelgan. Sifat so’z turkumi morfologiya bo’limida o’rganiladi. Sifat deb otga bog’lanib “qanday?”, “qanaqa?”, “qaysi?” kabi so’roqlarga javob bo’ladigan so’z turkumiga aytildi. Sifat mustaqil so’z turkumlari doirasiga kiradi va asosan otga bog’lanib keladi. Masalan: chiroqli gul, baland bino, devoriy gazeta. Ushbu so’zlardagi chiroqli, baland, devoriy so’zları sifat leksemalari hisoblanadi. Shuningdek, ingliz tilidagi sifatlar ham otlarga bog’lanib keladi. Masalan: a beautiful flower, a high building, a wall newspaper. Ushbu so’zlardagi beautiful, high, wall so’zları sifat bo’lib kelgan.

O’zbek tilida sifatlarning ma’nosiga ko’ra 6 gruhga bo’lib o’rganamiz. Bunga quyidagi sifat turlari kiradi:

1. Xususiyat bildiruvchi sifatlar (sodda, mehribon, odobli)
2. Rangni bildiruvchi sifatlar (qora, qizil, sariq)
3. Ma’za-tamni bildiruvchi sifatlar (achchiq, nordon, shirin)
4. Hajm-o’lchovni bildiruvchi sifatlar (og’ir, yengil, tor, keng)
5. Hidni bildiruvchi sifatlar (xushbo’y, sassiq, qo’lansa)
6. Makon zamonni bildiruvchi sifatlar (ichki, tashqi, kuzgi)

Shuningdek, ingliz tilida ham o’zbek tilidagi kabi ushbu sifatlar ham mavjud. Masalan, **rangni bildiruvchi sifatlardan:** *qora-black, qizil-red, xususiyatni bildiruvchi sifatlardan:* *sodda-simple, mehribon-kind, maza-ta’mni bildiruvchi sifatlar:* *shirin-sweet, achchiq-bitter, hajm-o’lchovni bildiruvchi sifatlar:* *keng-wide, og’ir-heavy, hidni bildiruvchi sifatlar:* *sassiq-ugly, xushbo’y-fragrant, makon-zamonni bildiruvchi sifatlar:* *kuzgi-autumn, tashqi-external.*

Sifat turkumi o’ziga xos so’z yasalishi va morfologik tizimiga ega. O’zbek tilida yasama sifatlar, asosan, sifat yasovchi suffikslar yordamida xosil qilinadi: aqli (aql+li), hosildor (hosil+dor), serqirra (serqirra) va shunga ko’ra sifatning morfologik belgisi — daraja kategoriyasiga egaligidir. Sifat bildiradigan belgi daraja nuqtai nazaridan 3 xil bo’lishi mumkin: me’yoriy, me’yordan ortiq (yuqori) va me’yordan oz (kuchsiz, past). Shunga ko’ra, sifatning 3 xil daraja kategoriyasi farqlanadi: oddiy daraja — maxsus ko’rsatkichi yo’q va u belgining me’yoriy (ortiq — kamlik, kuchli — kuchsiz va sh.k.ga befarq) holatini bildiradi: yaxshi, katta, shirin, xunuk kabi; orttirma daraja — bu darajaning ham maxsus morfologik ko’rsatkichi yo’q. Belgining ortikligi ma’nosи o’zbek tilida bir necha usul bilan ifodalanadi. Masalan, fonetik usul: sapsariq, ko’mko’k, baland (unlini cho’ziq talaffuz etish); leksik usul (maxsus so’zlar yordamida): juda kuchli, nihoyatda go’zal kabi; analitik usul: shirindan shirin, qo’poldan qo’pol kabi; ozaytirma daraja shakli roq affaksi yordamida yasaladi: yaxshiroq, balandroq, sho’rroq kabi



Degrees of Adjective - sifat darajalari

	Simple (Oddiy daraja)	Comparative (Qiyosiy daraja)	Superlative (Orttirma daraja)
Bir bo'g'indan iborat bo'lgan (one syllable adjectives)	Large Wide Cold Big High Sharp	Ularga -r yoki -er qo'shiladi. O'zbek tilida – roq deb tarjima qilinadi. Larger Wider Colder Bigger Higher Sharper	The...-st/-est qo'shiladi, tarjimasi eng... The Largest The Widest The Coldest The Biggest The Highest The Sharpest
Ikki va unda ortiq bo'g'inli sifatlar (more than two syllable adjectives)	Beautiful Modern Difficult Exiting	More... More beautiful More modern More difficult More exiting	The most... The most beautiful The most modern The most difficult The most exiting
Tarkibi va o'zagi o'zgaradigan sifatlar	Little Much/many Far Good/well Bad/badly	Less More Farther/further Better Worse	The least The most The farthest/the furthest The best The worst

Sifat so'z turkumidan avvaldan keng ko'lamda foydalanib kelinadi. Har qanday sohada sifatlarning ishlatilishi yuqori darajada desak mubolag'a bo'lmaydi. Masalan poetik matnlarda, devon, romanlarda, yozuvchi va shoirlar o'z ijodiy ishlarida sifatlardan mohirona foydalanilib kelgan va hanuzgacha foydalanilmoqda.

Masalan:

Ko'zing qaro sening, qoshlaring qaro,

Yuzing oq sening, kulishlaring oq

(Usmon Azim)

Ushbu misrada sifat leksemalaridan mohirona foydalanilgan. (*qaro,qaro,oq,oq*).

Bundan tashqari sifatlar badiiy adabiyotda va xalq og'zaki ijodi namunalarida qo'llanganda otlashuv xususiyatiga ham ega. Masalan: **Yaxshi topib gapirar, yomon qopib gapirar. Qozonga yaqin yoursang , qorasıyuqar; yomonga yaqin yoursang , balosi yuqadi.** Ushbu misollardagi belgilab berilgan so'zlar otlashgan sifatlar hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009.
2. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.
3. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: O"qituvchi, 2003.
4. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati.-Toshkent,2002
5. Usmon Azim "Grafika" she'ri
6. <https://youtu.e/W4p9kqgdIYk>



XALQ OG‘ZAKI IJODIDA MAQOL JANRINING TUTGAN O’RNI

Xakimbayeva O.K.

O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti. O’qituvchi

Qo’rg’onova Sh.A.

O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti. Talaba

Tel: (998 931972300)

E-mail: shahnozaqorganova@gmail.com

Annotatsiya: Maqol janri xalq og’zaki ijodida juda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada xalq og’zaki ijodining eng muhim janrlaridan biri bo’lgan maqol janri haqida so’z yuritilgan. Maqol janriga yangicha yondoshuvlar haqida ma’lumotlar berilgan. Xalq og’zagi ijodining boshqa turlari bilan maqol janrining bog’liqligi va farqli tomonlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so’zlar: xalq og’zaki ijodi, maqol, donolar so’zi, frazeologiya, matal, ritmik shakl, naql, hikmat, hikmatli so’z, tanbeh, mashoyixlar so’zi, paremiologiya.

Maqollar xalq ijodiyotining qadimiy janridir. Ular qadimgi davrlarda paydo bo’lgan va asrlarga borib taqaladi. Ularning ko’pchiligi yozma til bo’lmagan paytda ham paydo bo’lgan. Frazeologiyada alohida bo’lim ajratilgan *maqol va matallar* deb ataladigan so’zlarning barqaror birikmalarining tarkibiy-semantik turini o’rganadigan paremiologiya.

“Maqol” so’zi arabcha bo’lib “so’z” demakdir. Maqollarda fikr aniq, xulosa tugal, ifoda lo’nda va albatta, hukm tarzidagi ibratlari fikr bo’ladi.

Maqollar she’riy va nasriy tuzilishga ega. Ularda mehnatsevarlik, vatanparvarlik, mardlik, saxiylik,adolat, insof, do’stlik, olivjanoblik, chin insoniy g’oyalar, sof muhabbat, ilm olishga da’vat va shu kabilar o’z aksini topgan. Haqiqatdan ham maqollar xalqning donoligidir. Unda kishilar hayotni obdon kuzatib tajriba to’plab aytgan hikmatli so’zlari o’z ifodasini topadi. Ko’pincha she’riy shaklda izhor etilgan maqollarning mavzusi rang-barangdir. U rad qilinmas darajadagi pishiq nasihatdan iborat bo’ladi. Maqollar grammatik jihatdan gap holida shakllangan, xalq donishmandligi natijasida vujudga kelgan barqaror birikmalar maqollar sanaladi.

Maqollar asosan xalqning hayotiy tajribasi, donishmandligi natijasida maydonga keladi. Ular nutq jarayoniga qadar tilda tayyor birikma holida mavjud bo’ladi. So’zlovchi bunday birikmalarni yaxlit holda nutqiga olib kiradi. Maqollar fikrni ta’sirchan, bo’yoqdor qilib ifodalovchi qudratli vositadir. Nutqda maqollardan foydalanish so’zlovchining mahorati sanaladi. Shuning uchun ham xalq og’zaki ijodida maqollarning o’ziga xos o’rni bor. U xalqning bir necha avlodlarning aql-u farosati hamda turmush tajribasining yakuni, ular donishmandligining mahsulidir. Yosh avlod tarbiyasida maqollarning o’rni katta.

Maqollar ona vatanni sevishga, uning har bir qarich yeri uchun kurashga, turli kasb-hunar egasi bo’lishga, ahil bo’lib mehnat qilishga, to’g’ri so’z va halol kishi bo’lib kamol topishga, yaxshi odob va olijanob xulqli bo’lishga chaqiradi.

Shuningdek, maqol so’zining lug’aviy ma’nosи -“xalq og’zaki ijodi janri, qisqa va lo’nda obrazli, grammatik va mantiqiy tugal ma’noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli gap. Muayyan, ritmik shaklga ega bo’lgan qolip hisoblanadi”

Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg’ulari, ijobiliy fazilatlari mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib ixcham va sodda poetik shaklga kelgan.

Maqollar, asosan, mavzu jihatidan nihoyatda boy va xilma – xil bo’lib, ularda vatan, mehnat, ilm-hunar, do’stlik, ahillik, donolik, xushyorlik, til va nutq madaniyati, sevgi va muhabbat kabi mavzularda, shuningdek, salbiy xislatlar xususida ham fikr boradi. Maqol uchun mazmun va shaklning dialektik birligi, ko’p hollarda qofiyadoshlik , ba’zan ko’p ma’nolik , majoziy ma’nolarga boylik kabi xususiyatlar xarakterli bo’lib, ayniqsa, antiteza hodisasi ko’p uchraydi. Buni quyidagi maqolda ko’rishimiz mumkin .

Kattaga hurmatda bo’l, kichikka izzatda bo’l.

Turkiy xalqlarning maqollaridan na’munalar dastlab Mahmud Qoshg’ariyning “Devoni lug’otit turk” asarida kiritilgan. Bu maqollarning bir qanchasi hozir ham o’zbek xalqi orasida turli variantlarda ishlatalib kelinmoqda. Masalan “*Kishi olasi ichdin , yilqi orasi tashdin*”. Maqollar ba’zan masal, zarbulmasal, naql, hikmat, hikmatli so’z, tanbeh, mashoyixlar so’zi, hikmatli



maqollar, donishmandlar so’zi, otalar so’zi kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Ko’pgina tilshunoslar maqol va matallarning kelib chiqishini o’rganib, ularning tildagi ko’rinishi va faoliyati haqida turli farazalarni ilgari suradilar. L.N.Orikina maqol oddiy gap emasligini qayd etadi. “U xalqning fikrini bildiradi. Bu xalqning hayotga bergan bahosi, xalq tafakkurini kuzatishi. Har bir maqol maqolga aylangani yo’q, faqat ko’pchilikning turmush tarziga, o’y-fikrlariga mos keladigan maqol-bunday naql asrdan asrga o’tib, ming yillar davomida mavjud bo’lishi mumkin. Har bir maqol ortida ularni yaratgan avlodlarning obro’si bor. Shuning uchun maqollar bahslashmaydi, isbotlamaydi-ular aytgan har bir narsa qat’iy haqiqat degan e’tiqodda nimanidir tasdiqlaydi yoki inkor etadi”. V.A.Jukovning ta’kidlashicha, “xalq orasida maqollar-turli mavzularda og’zaki qisqa so’zlar qaysi davrdan boshlab tarqala boshlaganini aniqlash juda qiyin. Birinchi so’zlarning paydo bo’lishi vaqtida ham noma’lum - zerikarli va murakkab tushuntirishlarsiz suhabatda biror narsani ifodali va aniq tavsiflash va qodir bo’lgan o’rinli so’zlar, ammo tadqiqotchining fikriga ko’ra, bir narsa shubhasizdir: maqollar va iboralar uzoq antik davrda paydo bo’lgan va o’z tarixi davomida xalqqa hamroh bo’lib kelgan. Maxsus xususiyatlar maqollarni ham, kundalik hayotda va nutqda doimiy va zarur qilib qo’yan”.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak maqollar insonlar hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Shunchaki maqollarni o’qiganda uning tag zamiriga yetib borish va eng asosiysi uni hayotda targ’ib qila olish bu janrning qanchalik go’zal va takrorlanmas ekanligini ko’rsatadi desak mubolag’a bo’lmaydi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O’zbek xalq maqollari. T.Mirzayev, A.Musaqulov. Toshkent 2015.
2. J.Raymond “Naprijonnost v poslovitsah” Zapadniy folklore. 1956.
3. O’zbek xalq maqollari. Toshkent. 2016
4. <https://en.wikipedia.org/wiki/Proverb>



INGLIZ VA O’ZBEK TILLARIDA SON KATEGORIYASINING IFODALANISHI

Xakimbayeva O.K.

O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti. O’qituvchi

Samandarova Sh.R.

O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti. Talaba

Tel: (998 938055654)

E-mail: samandarovashahnoza5@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada son so’z turkumining ikki tilde qiyoslanishi haqida fikr yuritilgan. Son so’z turkumini ikki tilda qiyoslaydigan bo’lsak, shuni e’tiborga olish kerakki, o’zbek tilida son asosan predmetlarning miqdorini, sanoq jihatdan tartibini bildiradi. Ingliz tilida ham xuddi shunday. Bajaradigan vazifasiga ko’ra ravish va sifatga yaqin turadi. Son otlar bilan qo’llanilib ko’p predmetlarning yig’indisini va miqdorini ifodalaydi. Sonlar boshqa so’z turkumlari singari tuzilishiga va bajaradigan vazifasiga ko’ra bir necha turlarga bo’linish xususiyatiga ega.

Kalit so’zlar: son, sanoq sonlar, tartib sonlar, miqdor sonlar, sonlarning otlashishi, jamlovchi sonlar, sodda sonlar, qo’shma sonlar.

So’nggi besh yillikda Prezidentimiz tashabuslari bilan ta’lim sohasiga juda katta e’tibor qaratilmoqda. Shu o’rinda tilshunoslikda ham bir qancha amaliy va nazariy jihatdan ko’plab o’zgarishlar yuz berdi. Bu o’zgarishlardan eng muhimi tilshunoslikda qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning kundan kunga takomillashib borishi desak mubolag’ a bo’lmaydi. Umuman olib qaraganda, o’zbek tiliga qardosh bo’lmagan tillarni o’zbek tili bilan qiyoslaganda anchagin katta farq qiladi. Bunga son so’z turkumini misol qilib oladigan bo’lsak, son narsalarning sanog’ini bildiradi.

Sonlar narsaning aniq miqdoriy belgisini bildirish jihatdan miqdor bildiruvchi so’zlardan farq qiladi. Misol qilib aytadigan bo’lsak, *kutubxonadan kitob oldim* (miqdor bittami yoki undan ko’p, noma’lum), *kutubxonadan ko’p kitob oldim* (bittdan ko’pligi aniq, lekin miqdori aniq emas). *Kutubxonadan beshta kitob oldim* (bu yerda miqdori aniq). Ingliz tilida ham shunga o’xshashdir. *I have bought a book* (bu yerda miqdor aniq, chunki bitta ekanligini bilish uchun “a” artiklidan foydalanilyapti. *I have bought many books* (bunda bittadan ko’p, lekin nechta ekanligi noma’lum).

Xuddi o’zbek tili singari ingliz tilida ham sonlar ikki turga bo’linadi; *sanoq son va tartib son*. Sanoq sonlarni ikki tilda ham ketma-ket sanab ketaveramiz, lekin tartib son hosil qilganda bular farqlanadi, ya’ni o’zbek tilida tartib sonlarni yasash uchun “-nchi” qo’shimchasidan foydalanamiz. Misol uchun, birinchi, ikkinchi, uchinchi, o’n ikkinchi, o’n beshinchi, yigirmanni va hokozolar. Lekin ingliz tilida ularni o’z shakli bor. Boshidagi uchta ketma-ket tartib raqam The first, the second, va the third deb aytildi, qolgan sonlarning tartibini bildirish uchun raqamlar oldidan “the” artiklini va raqam ketidan “th” qo’shimchasini ishlatalamiz. (The fifth of December, the eighth, the eleventh of October va hakozo). Endi buni gap ichida ko’radigan bo’lsak, “The twentieth century is computer technologies century”.

O’zbek tilida sonlarning yana bir muhim xususiyati ma’nojihatdan miqdor sonlarga bo’linishidir. Miqdor sonlar esa o’z ichida olti turga bo’linadi (sanoq son, dona son, taqsim son, jamlovchi son, chama son, kasr son.).

Ingliz tilida esa sonlar asosan tartib (ordinal number)va sanoq (number) sonlarga ajratiladi.

1. Sanoq sonlarni odatdagidek, one, two, three, four, five, deb sanab ketaveramiz, lekin o’nliz sonlarda 13 dan 19 gacha raqam oxiriga “teen” qo’shimchasi, 20 dan 90 gacha “ty” qo’shimchasi qo’shiladi.

2. Narsalarni donalab ko’rsatish uchun “ta” va “dona” so’zlaridan foydalanamiz. Misol uchun, o’nta gul, besh dona daftari.

Ingliz tilida esa dona sonni ifodalash uchin hech qanday qo’shimcha yo’q: five pens, twenty books, desak beshta ruchka va yigirmata kitob degan ma’noni tushunamiz.

3. Taqsim sonlarni ifodalash uchun “tadan” qo’shimchasini ishlatalamiz. Misol uchun, o’ntadan, ikkitadan ...

4. Jamlovchi sonlar (collective numbers) ni ifodalash uchun “-ov, -ala, -ovlon” qo’shimchalaridan foydalamiz. Misol uchun, ikkov, uchala, to’rtovlon.



Ingliz tilida esa sonlarni jamlab ko’rsatish uchun many, pair, triad so’zlari ishlatiladi. Many people, pair of glasses, pair of scissors, triad similar bags.

Sonlar gapda otga, olmoshga, sifatga, ravishga ishora qilib kelishi mumkin.

Masalan: I have two hats.(otga).

Two went to travel yesterday (olmoshga)

The first flower is beautiful (sifatga)

I walked to mountain twice (ravishga)

Umuman olganda “son” turkumini ikki tilda bir biri bilan qiyoslaydigan bo’lsak, yetarlicha farqlar bor. Lekin ularni bir-biriga bog’lab o’rganadigan bo’lsak, deyarli uncha katta farq topmaymiz, nafaqat bir-biriga qardosh bo’lmagan ikki tilning o’xshash jihatlarini topamiz, balki, ular orasidagi bog’liqliklarni ham ko’rshimiz mumkin.

Foydalanimgan adabiyotlar ro’yhati:

1. O’zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent. 2016.
2. Erkaboyeva N. O’zbek tilidan ma’ruzlar to’plami Toshkent. 2020.
3. (Numeral (linguistics)
4. https://en.wikipedia.org/wiki/Numeral_%28linguistics%29?wprov=sfla 1



INGLIZ VA O’ZBEK TILLARIDAGI FE’L KATEGORIYASINING IFODALANISHI.

Xakimbayeva O.K.

O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti. O’qituvchi

To’lqinova S.D.

O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti. Talaba

Tel: (998 90 491 41 09)

E-mail: sdavronvna@gmail.com

Anotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o’zbek tillaridagi fe’l kategoriyasining ifodalanishi haqida ma’lumot berilgan. Ingliz tilidagi fe’llarning o’zbek tilidagi fe’llardan farqli jihatlari haqida gap borgan. Ingliz va o’zbek tilidagi fe’llarni taqqoslash, ularning o’xshash va farqli tomonlari haqida fikrlar berilgan. Fe’lning aniq va noaniq shakllari mavjud bo’lishi, ular gapda tuslanib yoki tuslanmay kelishiga ko’ra bir-biridan farq qilishi, shaxs, son, zamon va payt kategoriyalarda o’zgarib, gapda kesim vazifasida keluvchi fe’l shakllari fe’lning aniq (Finite Forms of the Verbs), ya’ni predikativ shakllari deyilishi haqidagi fikrlar yoritilgan.

Kalit so’zlar: To’g’ri fe’llar (regular verbs), noto’g’ri fe’llar (irregular verbs), zamon (tense), harakat nomi (infinitive gerund), nisbat (voice).

Fe’lning grammatik mohiyati haqida gapirganimizda shuni ta’kidlash mumkinki, fe’l mustaqil so’z turkumi bo’lib, harakat, holat yoki jarayonni ifodalaydi. Fe’l quyidagi xususiyatlariga ko’ra mustaqil so’z turkumi sifatida xarakterlanadi:

- 1.Harakat, holat yoki jarayon sifatidagi leksik-grammatik ma’nosи.
- 2.O’ziga xos o’zak yasovchi quyidagi suffikslar (-ize, -en,-ify;) va prefikslarga (re, over-, out-, miss-, un;) hamda leksik-grammatik so’z morfemalarga egaligi.
- 3.Fe’l boshqa so’z turkumlariga qaraganda so’z o’zgartirish va so’z yasash borasida ancha rivojlangan, bunga sabab uning bir qancha grammatik kategoriyalarga egaligidir.
- 4.Fe’lning o’ziga xos tarzda bog’lanishi.
- 5.Gapda turlicha sintaktik vazifalarda kela olishi.

Fe’l asosan shaxs faoliyatini ko’rsatib keladigan so’z turkumidir. Bunday ta’rif har ikkala tilga ham ya’ni, ingliz va o’zbek tillariga xos bo’lib, buni quyidagi misollarda ham ko’rish mumkin: *Lanny Swarts and Young Mako are coming here tonight (P. Abrahams). They set down, very shaky, and looked at each other.* O’zbek tilida ham quyidagi misolni keltirishimiz mumkin. Masalan; *O’rta maktabni a’lo baholar bilan bitirdi.*

Bu misollarda ajratib ko’rsatilgan so’zlar fe’l turkumiga oid bo’lib, ular gapdagi sub’yektning faoliyatini ko’rsatib kelyapti. Fe’llar boshqa so’z turkumlari kabi morfologik tuzilishiga ko’ra sodda, yasama va qo’shma fe’llarga bo’linadi. *Sodda (yoki tub) fe’llar (Simple (or root) verbs)* bir o’zakdan iborat bo’lib, sodda fe’llar tarkibida qo’shimcha yoki old qo’shimcha bo’lmaydi. Masalan, ingliz tilida: *to come, to see, to work, to bring, to hate, to grow.* O’zbek tilida: *kelmoq, ko’rmoq, ishlaromoq, o’smoq.*

Yuqoridagi misollardan harakat va holatni bildiruvchi so’z turkumi fe’l ekanligi haqida ma’lumotlarga ega bo’ldik. Fe’l asosan uchta zamonda tuslanadi. (hozirgi, o’tgan, kelasi zamon). O’zbek tilida fe’l so’z turkumi boshqa so’z turkumidan qo’shimcha qo’shilishi orqali yasaladi (ish+(ot so’z turkumi) +la).

Ingliz tilida fe’llar (speak, do, go,...) o’tgan zamon shaklida ikkita guruhga bo’linadi: To’g’ri va noto’g’ri fellar (regular and irregular verbs). Noto’g’ri fe’llar o’z ichida uch guruhga bo’linadi (infinitive, past participle, perfect participle).

Ingliz tilida gap tuzishda fe’llarning turini to’g’ri ishlatish kerak. To’g’ri foydalanish uchun noto’g’ri fe’llar jadvalini yodlash zarur (do, did, done).

Ingliz tilida quyidagi fe’l shakllari mavjud: Yordamchi fe’llar, modal fe’llar, nisbat shakllari, gerund, infinitive, zamon. Ingliz tilida yordamchi fe’llar asosan gapni so’roq va inkor qilishda ishlatiladi. Masalan: I do not like watching TV. (Men televizor ko’rishni yoqtirmayman). Ushbu gapda “do” present simple zamonining yordamchi fe’lidan foydalanib gap shaklini inkor gapga aylantirgan.

Modal fe’llar gapda mustaqil qo’llanila olmaydigan yordamchi fe’l shaklidir. Shuning uchun modal fe’llarni asosiy fe’l shakllari bilan gapda imkoniyatini, ehtimollilikni, qobiliyatni, zaruriyatni



ifodalashda foydalaniлади. Masalan: *I can play chess.* (Men shaxmat o'ynay olaman (qobiliyatni ifodalamoqda)). Ushbu gapda can qila olmoq modal fe'lidan foydalaniлган.

Gerund va infinitive o'zbek tilidagi harakat nomiga to'g'ri kelib gapda asosan “(i)sh” qo'shimchali tarjimani beradi. Gap tuzishda ikkalasi ham bir xil tarjimani bersada, ammo turli xil ma'nolarda va holatlarda qo'llaniladi. Gerund va infinitivni bir biridan to'g'ri farqlash uchun ma'lum bir qoidalarini yodlash zarur. Masalan: *I like reading the book, I would like to read the book, I would rather read the book.* Ushbu misollarning barchasi Men kitob o'qishni yaxshi ko'raman ma'nosini bersada, lekin turli xil shakkarda qo'llanilgan. Gerund, va infinitivni ikki xil shaklidan foydalaniлган. Zamon ingliz tilidagi eng muhim mavzulardan biridir. O'zbek tilidan farqli o'laroq ingliz tilida o'n oltita aniq nisbatdagi va o'nta majhul nisbatdagi zamonalr mavjud. Sababi ingliz tili gramatikasida o'tgan, hozirgi, kelasi zamon ma'nolaridan tashqari ish harakatning davomiyligi, tugallanganligi, oddiyligiga ham jiddiy e'tibor beriladi. Masalan *I am playing computer, ,I play computer.* Ushbu misolda ikkala gap ham hozirgi zamonda tuzilgan bo'lsada, lekin aspektlari turli xil ma'nolarini beradi. Birinchi gapda ish harakat ayni paytdagi holatning davomiyligini bildirsa, keyingisida har doim takrorlanadigan ish harakatni ifodalamoqda. Ingliz tilida har qanday holatda gap tuzishda fe'l asosiy rolni bajaradi. Agar gapda fe'l shakli yoki zamoni to'g'ri qo'llanilmasa, kutilayotgan ma'no aniq yoritib berilmaydi.

O'zbek tilida yuqoridaгidek fe'l shakllaridan foydalinish uchun o'sha ma'noni beruvchi qo'shimchalarni fe'l o'zagiga qo'shish orqali yasaymiz.

Masalan: 1.Zamon shakli qo'shimchalari -di, -ib, -gan(kan,qan), -yap, -yotir, -moqda, -ar, -ay, -moqchi.

2.Nisbat qo'shimchalari -in, -il, ish,-sat, -ir, -ar, -gaz, -g'az...

Shu kabi qo'shimchalarni fe'l o'zagiga qo'shish orqali aniq ma'noni ifodalash mumkin. Bu esa anglatilayotgan fikrni aniq va ravshan yetkazib berish imkoniyatini beradi.

Foydalaniлган адабиётлар ро'yxати

1. Bo'ronov J.B., Hoshimov O', Ismatullayev X. “English grammar “ –T., 1973.
2. “O'zbek tili grammatikasi” Tom 1. Morfologiya. - T., 1966.
3. Ильш Б.А. Современный английский язык. – М.: Просвещение, 1948.
4. Toshpulatov. SH. “STEP BY STEP” –T., 2006.
5. G'aporov. M Ingliz tili grammatikasi –T., 2006. Bet 3-32
6. <https://fayllar.org>

“ЎЗБЕКИСТОН ОЛИМЛАРИ ВА ЁШЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ”

(7-қисм)

Масъул мұхаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳих: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.12.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000